

821
C-12



*Sadoqat saroyining
mangu malikasi*

yoxud

ZULFIYAXONIM

*Hamid Olimjonning
se'ingsiz armoni*



Yangi nashr

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество преданных
вдач

521
0.12

Nurati QOBUL

SADOQAT SAROYINING
MANGU MALIKASI

ZULFIYAXONIM

yoxud

HAMID OLIMJONNING
SO'NGSIZ ARMONI

Esse va she'rlar



«Sano-standard»
Toshkent — 2020

-2180-

Ushbu kitobni
qabul qilgan va
qaytarib berish
majburiyatini
qabul qilgan
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.512.133-1(082)
K BK: 84(5Y)6
C17

Nurali Qobul

**Sadoqat saroyining mangu malikasi Zulfiyaxonim yoxud
Hamid Olimjonning so'ngsiz armoni. (Esse va she'rlar) – T.:
«Sano-standard» nashriyoti, 2020. – 128 b.**

*Mazkur kitob yozuvchi Nurali Qobulning shoira Zulfiya xonimga
bo'lgan cheksiz hurmati bois dunyoga kelgan. Unda yozuvchining
shoira bilan birgalikda faoliyat yuritgan yillari esga olinadi.
Kitob so'ngida Hamid Olimjon va Zulfiya xonimlarning eng sara
she'rlaridan namunalar keltirilgan.*

ISBN 978-9943-5466-9-1

© «Sano-standard», 2020-y.



Zulfiya (1915–1996)



O'zbek xalqining sevimli sho-
irasi, tanigil jamoat arbobi Zul-
fiya Isroilova 1915-yil 1-mart
kuni Toshkentda temirchi-hu-
narmand oilasida dunyoga kel-
gan. Shoira xotin-qizlar bilim
yurtida o'qigan vaqlaridayoq

(1931–1934) adabiy to'garaklarda she'rlar mashq qila
boshladi. 1935–1938-yillarda O'zbekiston Fanlar aka-
demiya sinining Til va adabiyot instituti aspiranturasida
tahsil oldi. So'ngra 1938–1948-yillarda Bolalar nash-
riyotida muharrir, O'zbekiston Davlat nashriyotida
bo'lim boshlig'i, 1950–1953-yillarda esa «O'zbekiston
xotin-qizlari» («Saodat») jurnalida bo'lim boshlig'i.
1953–1985-yillarda esa bosh muharrir bo'lib ishladi.

Zulfiya 17 yoshida yozgan «Hayot varaqlari» (1932)
birinchi she'rilar to'plami bilan Oydin, Muzayyana
Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safida adabiyot ola-
miga kirib keldi.

Zulfiyaning ijodiy kamolotida o'zbek va rus mum-
toz adabiyoti, xalq og'zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti
an'alarining roli benihoya bo'ldi.

Shoira «She'rilar» va «Qizlar qo'shig'i» (1938) kabi
poetik asarlarini ona-Vatan va uning dala, cho'llari-
da mehnat qilayotgan paxtakorlar, mexanik, traktor-

chi qizlarning qaynoq hayotlariga bag'ishlaydi. Ayni
ehog'da mazkur to'plamlardagi she'rilar shoiraning
she'rliy mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarak-
terlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Urush davrida «Uni Farhod der edilar» (1943),
«Hijron kunlarida» (1944) kabi to'plamlarining nashr
etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga da-
xil kirib kelayotganligidan nishona edi. To'plamda-
gi she'rilar vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va
qalabuga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarak-
terlidir. Zulfiyaning «Mening Vatanim», «Qo'limga
qurol-u ustimda shinel», «Bizni kut» kabi umidbaxsh
she'rilar urush davri o'zbek she'riyatining jangovar ru-
hini ifodalovchi asarlar qatoridan o'rin olgan.

Shoiraning urushdan so'nggi yillarda yozilgan
«Bulada bir kun» (1948), «Tong qo'shig'i» (1953) kabi
bir qator she'rilar turkumi, «Men tongni kuylayman»,
«Yuragimga yaqin kishilar» (1958), «Kuylarim sizga»
(1965) to'plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayo-
nida fidokorlik ko'rsatayotgan kishilar hayoti jo'shib
kuylanadi. «So'roqlaydi shoirmi she'rim» (1960), «Oy-
dine» (1953), «Quyoshli qalam» (1967) kabi ocherk va
dostonlari H. Hakimzoda, Oybek, Oydin, Hamid
Olimjon kabi ustozlarning yorqin xotiralarga bag'ish-
langan. Zulfiya H. Olimjonning «Sennur'», «Zaynal
va Omon» dostonlari asosida pesa va opera libret
larni ham yaratgan.

Zulfiya «Uylar», «Shalola» kabi sheʼriy majmualari uchun Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti sovrindori boʻlgan. Hind mavzuidagi sheʼrlari uchun Javoharlal Neru nomidagi xalqaro sovrin, tinchlik va doʻstlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiy-parvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro «Nilufar» mukofotiga sazovor boʻlgan.

Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Mist, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda safarda boʻldi. U 1956-yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehli-da oʻtkazilgan birinchi konferentsiyasida qatnashib, mashhur «Mushoira» (1958) asarini yaratdi.

Uning sheʼrlari rus, ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira Nekrasov, Lermontov, V. Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, M. Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini oʻzbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Atoqli shoira 81 yoshida, 1996-yilning 1-avgustida vafot etgan.



Qisse



Yozning qoq o'rtasi, tog'lar uchun haqiqiy bahor boshlangan chog'lanar edi.

Mirzacho'l o'zlashtirishga kirishilib, tog' qishloqlari aholisini ko'chirish siyosati boshlangan, odamlar necha yuz yillardan beri yashab kelayotgan, ota-bobolari xoki yotgan, kindik qonlari to'kilgan tuproqlarni tark etmoqning azob-uqubati talvasasiga tushib qolgandilar.

Eng dahshatlisi, viloyat, tuman va xo'jalik rahbarlari o'zlariga yoqmagan, haqiqatlab kishilar yetishib chiqqan qishloqlarni birinchi galdako'chirma ro'yxatga tirkar, tepadan tasdiqlangan yu taklifni rad etmoqning iloji yo'q, o'ttiz yettinchi va elliginchi yillar jismoniy hamda ma'naviy jihat'onlari hamon kishilar boshiga soya solib turardi.

O'sha paytdagi Samarqand viloyat, G'allaorol tumani "Qoraqishloq" davlat xo'jaligi, ya'ni sovxozning to'rtinchi bo'limida joylashgan, hozirgi Baxmal tumani markazi O'smat qasbasiga utash O'rtabaland qishlog'imiz ham ko'chirma ro'yxatining boshida ekan.

Sovxozning yosh direktori Sobir Abdusattorovning astoydil g'ayrati bilan Oygor tog'i bag'rida, Kattasoyning sharsharasida yayrab yashayotgan

o'ntab oilalar soya-salqin go'shalaridan mosuvo bo'lib, juzirama cho'lga ko'chib ketishlari kerak edi.

Bozor kuni. Apam odatdagidek kulchatoy qilgan, qozonga har galgidan mo'lroq et solingan, hamir ham bir nechta zuvala ko'proq edi.

Dadam esa o'ygatolgan hovlining u boshidan bu boshiga borib kelar, o'zlaricha gapirinardilar. Qitlagohimiz o'sha paytda xo'jalik qoramolchilik fermasining mudiri bo'lib, qishlog'imizning aksar xalqi qo'l ostilarida ishlashardi.

Apam o'rik ostidagi so'riga oshloq yozib, mehmondorchilikka hozirlik ko'rar, opacham Sofiya shivitni maydalab to'g'ragancha suzmadan ayron tayyorlardi.

Ko'p o'tmay uzun-qisqa bo'lib dadamning do'stlari — Abdurajab muallim, bizning til va adabiyot o'qituvchimiz Kamol Hamroqulov va dadamning bolalik jo'rasi Allamurod magazinchilar kirib kelishdi.

Ko'chirma masalasida qishlog'imiz ikkita bo'linib qoldi. Bir guruh Guliston tarafiga ko'chaylik desa, bir tomon uyog'lar juda issiq, yashash qiyin bo'ladi demogda. Mening fikrim esa qayga ko'chsak ham, ota tuprog'idan olislab ketmaylik. Qayerga bormaylik, oxiri bir kun ota

¹ Baxmal va Zomin tumanlarining aksar tog' qishloqlarida tugqan onani "apa" deyishadi.

qishlog'imizga qaytamiz. Hech bo'lmaganda pensiyaga chiqqanimizdan so'ng.

Dadam gaplarini tugata olmadilar. Ko'zlariga yoshga to'lib, so'zlari bo'g'zilariga tiqilib qoldi. Kamol muallim bilan qishloqning qirq yillik magazinchisi Allamurod amaki ham yelkalari silkiniib sas chiqarmay yig'lashardi.

Matematika o'qituvchimiz, metin irodali Abdurajab muallimgina boshini ma'noli sollagancha sukut saqlardi.

— O'sha maslahatimiz ma'qul. Kamolbek aytganlaridek Jizzaxning "Moskva" kolxoziga ko'chib borsak! — dedilar dadam anchadan so'ng hirqiroq ovozdada sovuq qolgan choydan ho'plarkan. Tog'da tug'ilib o'sdan odam cho'lda yashay olmaydi. Boradigan joyimizda Oygordek bo'lmasa ham tog'lar bor ekan. Xohlagan paxtada, istagan chorvada ishlayveradi. — To'g'rimi Kamolbek? — adabiyot o'qituvchisiga qaradi dadam. — Raisning otasi ham sizning padari buzrukvoringsiz bilan do'st bo'lgan deb eshitardik. O'ylab qarasam shundan qulay yo'l yo'q. Pastki mahallamizning odamlari Vafogul tog'amiz boshchiligida Mirza cho'lga, Illich rayonidagi oltinchi sovxozga ketishmoqchi.

— To'g'ri, — dedi yuzi qip-qizil Kamol muallim dadamning fikrini ma'qullab. — Kolxoz rai-

Hamroqul Nosirov giroy. Hozirgi poshshomiz Sharof Rashidovning tug'ishgan tog'alari bo'ladi-lar. To'rttovimiz birga borib u kishining oldidan o'tishimiz kerak. Yo'q demaydilar. Ma'qul dedaringiz ertagayoq Qo'rg'onga borib kelamiz. Menimcha ko'chishga o'sha yerdan qulay joy yo'q.

— Ha, Hamroqul Nosirup poshshomiz Rashidovni tugqan tag'osi. Dav raislardan. Shu odamni kolxoziga borsak yomon bo'lmaymiz, — og'zini to'ldirib Kamol muallimning gapini ma'qulladi devedibat, hangamaning uyini kuydiradigan Allamurod magazinchisi.

— Ishga shayton aralashmay bu ishini bitiraylik, ko'pchilikning fikriga qo'shildi qorashirg'aydan kelgan, qishloqda birinchi bo'lib papiros chekkan Abdurajab muallim.

Bu — ona tuproqni tark etish subbat-munozaratining to'g'iz yuz olmish ikkinchi yil yoz oyining boshlarida kechardi.

Hali-hanuz eslayman. Biz bilan birga o'quvchi bolalarning ko'pchiligi to'yib non yemas, maktagiga, daftar xaltamga solib borgan bitta nondan bir barcha yeb, qolganini sinfdoshlarimga bo'lib berardim.

Togqa o'tinga borganimda ham, eshakka ortibladigan ikki katta bog'ni bog'lab, ortishga kuchim yetmas, bu ishini yoshi katta sheriklarim bajari-

shar, men ularni olib borganim — non va parvarda bilan siylar edim.

Birinchi may bayramida markaz — O'smatga tushardik. O'talarimiz yigirma, o'ttiz yoki qirq t' yin bayram puli berishardi. Bir buxanka non yigirma besh tiyin turardi. Do'stlarim qo'llaridagi yigirma besh tiyiga bitta non olib O'smat bu log'ining suvidan simirib bir pastda paqqos tushirishar va bizning qo'limizga qarab turishardi.

Xullas o'sha kun — qishlog'imiz odamlarining ona Oyg'or, qadrdon go'shamiz, bag'rida baliq kabi yayraganimiz Kattasoy, Ko'kqo'ton yozlog'i-yu, Galaxirmonjoy o'tlog'ini tashlab ketadigan alamlil dam yetib keldi.

Ko'chadan yigirma chog'li xonadonning mayda mollarini haydab borish Toshgul ammmamning o'g'li Rabbim cho'ponga, yirik shoxli mollarini haydash Toshmurod tog'begiga topshirildi.

Ertasi kuni esa Jizzaxdan o'n chog'li yuk mashinasi yetib keldi.

Shu damgacha men uchun qandaydir jozibali, sarguzashtlar bilan bog'liq ko'rinayotgan ko'chish degan ish yoshlar uchun uchun maroqli bir tirikchilik, yoshi bir joyga borib qolganlarga esa tarki vatan ekanligini elas-elas anglagandek edim.

Ko'chish haqidagi gap boshlangandan beri Shahzoda enamning shom tubi qorong'u bo'lgan,

yag'ni bir kishisi vafot etgan kishi kabi g'amgin va qayg'uqli qiyofada yurardilar.

Bobom mulla Qobulning birinchi xonimlari bo'lgan Shahzoda enam, farzand ko'rmagach, o'zlar bosh qosh bo'lib bobomizni kichkina, Iqbol enamizga uylantirganlar va tug'ilgan uch o'g'il va bir qizning tarbiyasini o'z zimmalariga olganlar.

Katta enam ikkimiz alohida bir hujrada yashardik. To'rt yarim yoshda maktabga borganim uchun o'n yoshimda beshinchi sinfni bitirgan edim.

Katta enamning birdan-bir orzusi ota-bobolari, bobom mulla Qobul dafn etilgan Qo'rg'ontepa qabristoniga ko'milish edi. Ibodatlarida shuni ko'rab, tun bo'yi Xudoga iltijo qilardilar.

— Siz ham ular bilan birga ketasizmi, qo'zim? — dechlar Katta enam yonimga uzanar ekanlar.

Savoldan ma'lum bo'ldiki, Katta enam qishlog'imizdan ketmaydilar.

— Yo'q enajon. Sizni tashlab hech qayoqqa ketmayman, — yig'iga o'xshash ovozda javob qildim Katta enam tomon o'girilib.

— Hamma maktabdosh jo'ralaring ketib qolsa, bir o'zing, kim bilan, qaysi maktabga borasan? Men senga apangday qaray olmasam, armonli ohangda xo'rsindilar Katta enam.

...Ko'ch-ko'ron Jizzaxdan kelgan eski yuk mashinalariga o'rtilgan, uyimiz, hovlimiz xuddi kichkina enam vafot etganlaridagi kabi yig'i-sig'iga to'lgandi.

Men ham bog' oralab kezgancha yig'lardim. Nega yig'layotganimni aniq-tiniq tasavvur eta olmasamda tinimsiz ko'zimdan yosh oqardi. Hamma narsani anglab turgan olapar ham ko'zlaridan yosh sizgancha orgamdan ergashardi.

Yuklar o'rtilib bo'lingan, shofyor birga kelgan sheriklarini kutib, darvozaxonada choy ichib o'tirar, tun yarimlab qolgan edi.

Apam bilan dadam yig'lashgancha men bilan xayrlashdilar.

— Sen uxlayver. Bizning qachon ketishimiz noma'lum. Maktab ochilishi oldidan kelib olib ketaman. Oltinchi sinfdan o'sha yoqdagı maktabda o'qيسان, — dedilar dadam meni bag'rilariga bosarkan yig'lab yubormoqdan arang o'zlarini tutib.

— Dadang bechora o'n yoshida yetim qoldi. Yetimning ko'ngli yarim bo'ladi. Sal narsaga ko'ziga yosh olishi ham shundan, — dadamning ko'ngli bo'shligiga izoh berardi Katta enam.

Men opam, uka va singillarim bilan xayrlashdim-da, Katta enamning hujralariga kirib bo'shimni o'ragancha yotib oldim.

Mashinaning ketganligini eshitmaslik uchun qishlog'imga ko'rpani bosgancha yig'lardim.

Ertalab uyg'onganimda huvillagan kattakon hovli va bog'da Katta enam, men va olapar uch-hovlimiz qolgan edik.

Tog' qishloqlarida odamlar endi oyogga turib, boyasovoqli bo'lsa-da, necha xonadan iborat vasijli uylar tiklay boshlashgan, ko'pchilikning hushpanasi hali bitmagandi.

Hammasini tashlab, taqdirga tavakkal qilib ketish kerak edi.

Maktab ochilishi yaqinlashganda dadam kelib Katta enam ikkimizni olib ketdilar.

Qishlog'imiz odamlari sovxoz deb atalgan, bir qavatli kommunal uylarga o'xshash binolarga joylashgandilar.

O'qituvchimiz Jizzax shahri, kolxozimiz markazi sanalgan Qo'rg'onga olib borganlarida bu yer aholilarini yod bilganimiz Hamid Olimjon tug'ilgan joy ekanligini, tomosha qilganimiz Narimov (Aslida Nuri imon so'zining buzilgan shakli) nomi maktabda Hamid Olimjon, Sharof Rashidov va Sarvar Azimov kabi yozuvchilar o'qiganligini bilib hayajonga tushdik.

Sangzor daryosining nomi Jizzax shahridan shimol tomonga o'tgandan keyin Qilgu deb ataladi.

disadir. Juda oz sonli ijodkorlarning shaxsiy, insoniy sifatlari taroziga qo'yilganda iste'dodi bilan teng keladi.

Buyuklik — insoniylik iste'dodining, haqiqiy ijodkorlik salohiyati bilan tutashgan, uyg'unlashgan nuqtasidan boshlanadi.

Shunday shaxslar bo'ladiki, barcha birdek sevimli, birdek ardoqlab, birdek boshiga ko'taradi. Vaqti zamoni kelib, bayroq qiladi.

Betakror shaxsiyat, ulusimizning shon-shavkatli, sharaflari farzandi va san'atkori Hamid Olimjon ana shunday inson edi.

Yetmishinchi yillar boshida Qo'rg'onda Hamid Olimjon uy muzeyining ochilishi Jizzax adabiy muhitida katta voqea bo'lgandi. Butun Jizzax bayram tusini olgan, Zulfiya va Komil Yashin boshchiligida poytaxtning atoqli adiblari tashrif buyurgandilar.

Muzey, Hamid Olimjon qo'llagan ashyolar, uning ilk asarlari namunalari, noyob fotosuratlar bilan to'la bo'lib, adabiyot ixlosmandlari, qolaversa butun Jizzax xalqida so'z ila tasvirlab bo'lmasa taassurot uyg'otgandi.

Men bu paytda viloyat hokimiyatida matbuot bo'yicha instruktor bo'lib, bevosita shu ishlar bilan shug'ullanardim. Rahbarimiz Sodiq Ahmato-

vich Nishonov bilan uyima-uy kezib eksponatlar to'plaganmiz.

Buyuk shaxslar ijodi va faoliyatini kitoblarda o'qib o'rganmoq naqadar maroqli bo'lganidek, ular ulg'ayib voyaga yetgan zaminda o'sib ulg'aymoq, kishiga ayrica zavq va ilhom baxsh etajagim o'shanda his etganman.

Zotan inson qalbida oliy adolat, muqaddas vatan va millatga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat uning bolaligida, yoshlik va o'spirinlik nigohi ila o'z yurtining kechmish tarixi, tabiati va shu mukonda yashagan tarixiy shaxslar-u yodgorliklar ta'sirida shakllanadi.

Biz Hamid Olimjon tug'ilgan va voyaga yetgan zaminda yashab o'qiyotganimizdan, bir paytlar ulug' zot kezman kengliklarda nafas olayotganimizdan faxrlanardik.

Hamid Olimjon hayotining so'ngi daqiqasiga qadar vatanim va xalqim deb yashadi.

III

O'sha fojeali voqea yuz bergan kun u do'st-lari Uyg'un va Chustiy bilan yuk mashinasida Do'mondagi Yozuvchilar ijod uyidan shaharga qaytadi. Uyushma raisi bo'lgan shoir haydovchining yonida, kabinada o'tirib kelardi.

...Yo'l bo'yida bolali ayol qo'l ko'taradi...

Kim bo'lmasin, shohmi, gadomi — insonlarga g'oyat diqqat-etiborli, ular dardi-hasrati, g'am-tashvishini to'ppa-to'g'ri yuragiga qabul qiladigan, atrofdagilar qalbining urishiga hassoslik bilan boquvchi ijodkor darhol mashinani to'xtatib, avolni kabinaga o'tqazib, o'zi kuzovga chiqadi...

So'ngra butun o'lkani, u sevib kuylagan yashil vodiylar, ko'm-ko'k dalalar, yuksak tog'lar-u bog'larni larzaga keltirilgan fojia sodir bo'ladi. U kabinada o'tirib kelaverishi ham mumkin edi...

Biroq u bunday qila olmasdi.

Kimlar jon berdi, kimlar nutq otdi shu vatan uchun deganlaridek, asl qahramonlik, haqiqiy millatsevarlik, ulus uchun o'zini fido eta bilmog'lik, ana shunday favqulodda holatlarda, favqulodda jasur va botir, mard va sharaflı kishilar shaxsiyatda namoyon bo'ladi.


O'zini xalqiga baxshida eta biladigan kishilar bu haqida uzoq o'ylab, mushohada etib o'tirmaydilar.

Shu bois ham o'limidan avval o'lmog'ni bilganlargina o'limidan so'ng yashaydilar.

O'limga hozir bo'lganlar, o'limga hozir bo'lganlar ustidan g'alaba qozonadilar.

Kechmishdan shunday bo'lib kelgan.

Boburshoh kabi dillarda taxt qurgan ko'ngil odamlari davlat-u saltanat taxtida uzoq o'tira olmaydilar. Yoxud Alisher Navoiy hazratlari:



“Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi Sulton aningdek”
deya iftixorda qayd etgani kabi ulug' va tengsiz bir shaxsiyat bo'lsa-da, xiyonat-u razolat, padarkushlig-u millatfurushlik qarshisida ojiz turumga tushib, yengiladilar.

Faqat shunday fidokor shaxsiyatlargina zamonlar kechib xalqining va yurtining shon-u sharafti, faxri iftixoriga aylanadilar.

Haqiqatni aytish mumkin bo'lmagan odamga hech qachon to'g'ri gapni gapirmas deydilar.

Bu g'oyat dono o'g'itga amal qilmoq ogil va fozillarning fazilatidir.

Sodda gapiradi, dono tinglaydi degandek, og'ziga egalik qilolmagan kishi hech nimaga ho-kim bo'la olmaydi.

Ildizi adolat bo'lgan adabiyotda esa faqat to'g'ri gap va katta haqiqat aytiladi va yoziladi. Shundaygina u san'at darajasiga ko'tariladi, insonlarni hayratga soladi va yashab qoladi.

Adabiyot degani adolat demakdir.

Zulm va yolg'onning sharni tongga qadar yonadi degandek, soxtalik qorishgan neki bor o'tkinchidir.

Hamid Olimjon ana shu e'tiqodga amal qilardi.



IV

Sharait taqozosiga ko'ra Do'rmon bog'ida ancha muddat yashashimga to'g'ri keldi. Zulfiya opa bahor, yoz va kuz oylari bog'dagi Hamid Olimjon oilasi uchun qurilgan uyda yashardilar. Gohida ishga birga ketar yoki birga qaytardik.

— O'sha mudhish voqea shu yerda sodir bo'lgan, Nuralijon! — dedilar opa mungli ovoza hozirgi Buyuk ipak yo'li ko'chasining onalar va bolalar shifoxonasi joylashgan tepalikdan inishdagi qiyalikni ko'rsatib.

Har o'tganda so'ramog'chi bo'lardim-u, biroq u kishining dardli, hasratli va armonli ko'ngillari-ga ozor bermaslik uchun jur'at eta olmasdim.

— To'xtaylik, — dedim beixtiyor.

To'xtab mashinadan tushdik. Yo'l bo'yida sassis, sadosiz, ko'z yoshi to'kdik, ming bir g'am yuki ila Do'rmonga etib keldik.

Bu yorug' ochunda kamdan-kam erkag-u ayolning «yulduzi bir-biriga to'g'ri keladi». Yulduzi to'g'ri kelganlar esa bir tomondan qisiladi, der edilar Katta enam.

Bu ikki ulug' shaxsiyat qismatini mushohada etar ekanman, Katta enamning shu so'zlari yodimga tushaveradi.

Do'rmon bog'larida yolg'iz, ichim to'kik, dilim so'kik, armon-u hasratla, og'ir qadamla kezar ekanman, bu yo'laklarda, bu qadrdon daraxtlar sohasida aziz va mehribon Zulfiya opa, zakiy Asqad aka, cheksiz mushohada sohibi Izzat Sulton, asl vatannparvar davlat arbobi Sarvar Azimov, go'zal g'azallar sohibi Vosit Sa'dulla, doimo g'amgin kezuuchi Pirmuqul aka, urug'doshim Muhammad Yusuf bilan birga kechgan mahzun, samimiy va takrorlanmas diydorlashuvlarni, subhatlarimizni eslayman. Toza qalbli inson va ijodkor Yo'ldosh Sulaymon, ko'chatini Farg'onadan keltirib barpo etgan, Zulfiya opaning bog'lariga tutash o'rikzor-ga tikilaman. Va bir paytlar qadrlil Zulfiya opaga o'qib berganim — to'rtlikni baxtiyor takrorlay boshlayman.

*Do'rmon bog'larida kezaman yolg'iz,
Botillardan bezib kelgan makonim.
Subutsiz zamona mung'ayar shonsiz,
Yana ne g'amlarni yelkalar tanim.*

Farg'onadan O'zbekiston parlamentiga deputatlikka nomzod etib ko'rsatilganimda ishonchli vakillarim bo'lib, Oltiariqda o'n olti kun Qodirjon aka Ibrohimovning uyida men bilan birga yashagan sadoqatli Muhammad Yusuf va Yo'ldosh aka-ni cheksiz alam va armon ila yod etaman!

Ulus-el, ana shunday iste'dodli, sharaflı farzand va fikr insonlari bilan millatdir, xalqdir.

Tuproq — o'zi uchun moli-jonidan kechganlarning' qoni ila sharaflangandagina Vatanga ay-lanadi.

Buyuk zakolarning teran idroki, uzoqni ko'ra biladigan zakosi, favqulodda tig'iz holatlarda qabul qilgan to'g'ri qarorlari, ilm-u amallari va buyodkorlik ishlari bilan sharaflanadi.

Zulfiya opa bilan qariyb o'n yil chamasi bir binoning uchinchi va to'rtinchi qavatida yonma-yon ishladik. U kishi "Saodat", men "Sovet O'zbekistoni san'ati" jurnallarining bosh muharrirlari edik. Deyarli har kuni ko'rishardik. Boisi, hozirgi axborot agentligi binosining ikkinchi qavatidagi oshxona kirishida, so'l tarafda bosh muharrirlar uchun yemakxona bor edi. Bu ishning tashabbuskori Zulfiya opa edilar. Respublika gazeta va jurnallarining rahbarlari har kuni bir piyola choy ustida ko'rishib, suhbatlashardik.

Bu tarixiy davralarning bekasi, katta-kichik tabirlarning ilhomchisi va qirolichasi so'zsiz Zulfiya opa edilar. «Saodat» qizlarining istagi va mening aralashuvim bilan o'rimbosar bo'lib kelgan Halima Xudoyberdiyeva ham opa bilan kelardilar. Davramiz keng edi: Qadri Asqad aka, Mirmuhsin domla, Ibrohim Rahim, Maqsud Qoriyev,

Nikolay Timofeyev, Shavkat Niyozov, Sadulla Karomatov, Suhrob Yo'ldoshev, Rustam Nurullin, Tuyg'un Valiyev, Boltaboy Yusupov, Sharof Ubaydullayev kabi ustoz va davradosh do'stlar. Ular nomini hurmat va e'tirom ila tilga olmoqni o'z insoniy burchim deb bilaman.

Biz kechmishdagi ustozlarni, xalqimizga baholi qudrat xizmat qilgan kishilarni unutsak, bizni ham kelajak avlod unutadi.

Davramizda tesha tegmagan gaplar, g'alati holatlar va ichakuzdi hangomalar ham bo'lib turardi. Bir kuni tushlikda g'amxo'rimiz Vera opa rassolnik degan birinchi ovqatni olib keldilar. Odatimizga ko'ra hech kim Zulfiya opadan oldin yemakka qo'l urmas edi. Men Zulfiya opaning ro'paralarida o'tirardim. Ovqatdan bir qoshiq ichib ko'rgan opa bexos achchiq qalampir yeb qo'ygan qiyofada menga qaradilar. "Juda sho'r-ku", dedilar kulimsirab. Barchamiz ta'tib ko'rdik. Haqiqatdan yemak juda sho'r edi. "Yo'li bor, Zulfiya opa" dedim oldimizda turgan shakardan qoshiqda olib, yemakka solarkanman. Shunday qilib barchamiz shakar bilan ta'mini rostdab, rassolnik ichganmiz.

1981-yil ta'tilini Zulfiya opaning takliflari bilan Zomin va Baxmalda o'tkazmoqni niyat qildik. Saraton boshlanishi bilan yo'lga chiqdik. Yana bir suhbatdoshimiz, opaning qadrdonlari, tarjimon

va olimi Sharofatxon Qambarova edilar, Mirza-cho'lni kezib, Zomin suv omborini tomosha qilib afsonaviy Sharsharaga yetib bordik. Juda ko'p ulug' tarixiy shaxslar, jumladan Sharof Rashidov kezib o'tgan musofixonaga joylashdik.

Bu xushmanzara manzilda bir xaftani o'tkazdik. Oshchi do'stlarimizga ko'mak berib, turli ovqatlar tayyorlaymiz. Yemak tayyorlash ham dam olishning bir turi deyildilar Zulfiya opa yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatib.

Bir kuni keng archazorga chiqib, toshdan o'choq yasab shirvoz etidan sho'rva qildik. Gal-magal aylanib kelib sho'rvani shopiramiz, masalliq solamiz, o'choqqa o'tin qalaymiz.

Ayniqsa, zirani go'zal bo'lib o'sib turganini ilk bora ko'rgan Zulfiya opa undan shoirona nigohlarini uzolmas edilar. Barchamiz ishtiyov bilan zira, kiyiko'ti, anoro'ti va hulvo terishga kirishib ketdik. Tergan ziranimizdan sho'rva mo'lgina soldik. Nihoyat sho'rvaniz pishib, ulkan archa soyasida dasturxon tuzadik. Odatda kakliklar ertalab hamda peshindan so'ng suv ichishga buloq va soy bo'yiga tushishadi.

Shu payt bizdan ancha pastlikda to'dda-to'da kakliklar sayrashganacha suvga tusha boshlashdi. Men yo'ldoshlarimizdan baland ovoz chiqarmaslikni, qushlarni cho'chitmaslikni so'radim. Zulfi-

ya opa esa kakliklar to'dasida qancha kaklik borligini sanashga urinardilar.

— Hayotimda hech qachon buncha ko'p kaklikni ko'rganim yo'q edi, — dedilar opa uchib ketayotgan qushlar galasiga zavq bilan tikilib. — Bu go'zal, asl holida turgan tabiat xilqatlarini avlodlar uchun asramoq kerak.

— Baxmalga yo'lga chiqqanimizda sizga yana bir narsani ko'rsataman, — dedim u kishining rohat qilayotganidan xursand bo'lib.

— Nima edi? — so'raydilar samimiy ko'zlari yonib.

— Aytсам qizig'i qolmaydi. Syurpriz!

— Bo'pti, — dedilar darhol rozi bo'lib.

Va nihoyat tarixiy sho'rvaniz supraga keltirildi. Hafsala bilan ichmoqqa kirishdik. Biroq mazaasi boshqacharoq. Hayron bo'lib bir-birimizga qaradik. Sho'ravadan ziraning emas, o't-o'lanning ta'mi kelardi.

Ayb menda edi. Ziravor teruvchi sheriklarimga ziraning yovvoyisi ham bo'lishini aytishni unutgan ekanman. Kimdir taxir ta'm beradigan anoro'tidan ham solib yuborgan ekan. Biroq kulishib, hazil-mutoyiba bilan bunday totli sho'rvani bundan buyon hech qachon tota olmasligimizni aytib, mazza qilib ichdik. Ta'mini rostlash uchun haqiqiy zira va kiyik o'tini ezib soldik.

— Sayri sayohatlar shunisi bilan qiziq-da, hamma narsa siz bilan men tushlik qiladigan Vexonning dasturxonidek, qoshiq va vilkalar joy-joyiga qo'yilganda sayohat bo'larmidi, — dedilar opa yayrab. — Yurtimizning har o't-u giyohi aziz va davo.

V

Afsonaviy Supa tekisligi orgali Baxmal tomon yurdik. Opa maroq bilan syurprizni kutardilar.

— Ana, syurprizning nishonasi, — dedim tepamizdan pastgina uchib o'tayotgan burgutni ko'rsatib. — Hozir qarshimizdagi tepalikka chiqib, uning harakatini kuzatamiz, — deyman so'z bergan syurprizim amalga oshmay qolishidan cho'chib.

Burgut pastlab uchib borib, bir qoyatoshga qo'ndi. Biz ham mo'ljallagan tepaligimizga yetib keldik. Archalar ostiga kiyimlarimizni to'shab, o'tirdik. Barchamiz diqqat bilan burgut qo'ngan qoyaga boqardik. Yuksak cho'qilarning to'rt tarafidan burgutlar biz Burgutqoya deya atagan qoya tomon uchib kelishardi.

— Mana o'sha syurpriz. Hozir qoyaga 50 chog'lik burgut uchib keldi. Hademay ikki barobar bo'ladi, — izoh berardim.

— Ana tabiatnint mo'jizasi.

— Esladim, siz bu yerga Andrey Voznesenskiy bilan Andrey Dementevni ham olib kelgansiz. Voznesenskiy aytib bergandi. Dementev "Yarador burgut" degan she'r yozib, sizga atagan, — xursand edilar opa.

Ko'p o'tmay burgutlar galasi yuzdan ham oshib ketdi. Kun oqgan bo'lsa-da, bu manzaradan ko'z uzib, ketgimiz kelmasdi.

— Xayr burgutlar, xayr tog'lar! — dedilar opa qoya tomon qo'l siltab.

Bizni kuta-kuta charchab xavotir olgan Baxmal o'rmon xo'jaligining o'ttiz yillik rahbari, mamalakat o'rmonchiligining fidoiysi O'ngar Tilovov ham yetib kelgan edi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mo'jaz fin uylariga joylashdik. Zulfiya opaning Baxmal, O'smatga tashrifi bayramga aylanib ketdi. Har kuni tog'-u bog', dala-yu soy, ekzotik qishloqlarni kecamiz. O'ying Oyqor tog'i ustidagi nur raqsini tomosha qilamiz. Oddiy o'qituvchi, cho'pon va sog'uvchilar bilan suhbatlashanda opa bu tabiiylik va soddalikdan yayrar, yoshargandek bo'lardilar.

Zulfiya opa har safar qachon qishlog'ingizga boramiz, deya so'rardilar. Nihoyat shu kun kelib, O'smatga bordik. Amakim Bahrom bobo qo'y so'yib qo'noq etdilar. Shu payt oldimizga

kelgan o'g'illari Norqul amaki qiz ko'rganligini, ayollar chaqaloqning ismini opaning tashriflari munosabati bilan Zulfiya qo'ymog'chi ekanligini aytdi. Bobo shu taklif uchun opadan rozilik so'radi.

— Yaxshi taklif, — dedilar opa o'zlariga xos g'amgin tabassumda. — Qizingizni ismi Hulkar bo'lsin. Shunda mening Hulkar ismli qizlarim yana bittaga ko'payadi, — deya chaqaloqqa ism qo'yib berdilar.

O'sha paytdagi tuman va xo'jalik rahbarlari Karomat Muhammadiyeva, Arslon Hakimov, Abdusamat Narimov, Safar Mallayev, Xolmurod Rasulov, Nusrat Abdurazzog'ov, Abduvohid Usanov, Islom Usmonov, Sanaqul Begaliyev, Fayzulla Ne'matullayev, Sayfiddin Ziyodullayev, Yarash Pardayev, Vafogul Normurodov, Mannon G'aybullayev va Nosir Qodirovlar bizni zeriktirmas, tongotar suhbatlar qurardik. Ayniqsa, rayj-roko'm raisasi Karomat Muhammadiyevaning mehmonnovozligini keyin ham eslab yurdik.

Do'stlarga sadog'atli, iisonlarga vafodor bo'lgan Zulfiya opa bu samimiy va ko'ngli ochiq kishilarni nomma-nom so'rab, salom aylishimni tayinlardilar.

Bir finjon qahvaning qirq yillik xotirasi bor deganlaridek, u kishi bir da'fa suhbatlashgan, tuzini

yegan, ko'zi-ko'ziga tushgan insonni, kim bo'lmasin unutmas edilar.

Zulfiya opaga hassos shoirimiz To'ra Sulaymonning ellik yillik yubileyi Sirdaryo viloyatida tuzuk-quruq nishonlanmaganida mana shu odamlar bilan u kishini Baxmalga olib kelib, bir hafta bayram qilib, ko'ngillarini olganimizni hi-koya qilib beraman va shoir tug'ilgan Aldashman qishlog'iga olib boraman.

Yugorida, buyuk Hamid Olimjon timsolida bahs etganim, insoniylik iste'dodi, odamiylik sha'n-sharaf'i aslida shudir. Insonga bo'lgan mehmahabbat, eng yuksak san'at deganda ham biz shuni anglaymiz.

Faqat insonga, insoniyatga bo'lgan sevgi, sadogat va mehr kishini yuksaltiradi.

O'zini bilganni o'zingdek bil dedilar. O'zini bilgan, o'zligini topgan kishilargina o'zgalar dar-dini anglamoqqa hozir bo'ladilar va anglab yetaoladilar.

Buning uchun ko'ngil, dard odami bo'lmoq lozim. Hamid Olimjon o'zi fath etgan ona xalqi qalbining sultoni bo'lsa, Zulfiyabegam barchaning, ayniqsa, oddiy, qo'li kalta, yordamga muhtoj kishilar ko'nglining malikasi edi. U kishining qabuliga kelgan hech bir kishi ishi bitmay, norozi bo'lib ketmas edi.

Boisi, opa haqiqiy inson, yaxshi odam edilar. Xeminguey aytganidek, faqat yaxshi odamdangina yaxshi yozuvchi chiqadi.

Hayot deva atalgan ne'mat tug'ilish va o'lim orasidagi ikki qadamlik masofadir. Biz uni tiriklik saodati ham deymiz. Shoh-u gado birdek uning past-baland yo'llaridan o'tishga mahkum etilgan.

VI

Boshiga Hamid Olimjondek insondan ayrilmoq falokatli tushgan opa bu fojeariy voqeadan ikki yil o'tar-o'tmas, firqa va sho'roning shafqatsiz hujumiga duchor bo'ladi. Toshmehr mustabid tuzum, notabiiy g'oya, hech kimni ayamas edi. Boshiga tog' kabi musibat tushgan mushtipar beva ayol, ona va shoira ham uning zug'umidan chetda qolmadi.

Bu siyosat, iste'dodli, yangi gap va fikr aytmoqqa harakat qilganlarni ayovsiz "chekanka" qilib turardi. VKP (b) Markaziy Qo'mitasining 1946-yilning yozida qabul qilgan "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risidagi mutloq bir ta'raflama va asossiz qaroriga ko'ra o'sha davrning ikki mashhur adibi Anna Axmatova va Mixail Zoshenko sovet vogeligiga tuhmat qilganlikda ayblanib, ayovsiz tanqid ostiga olindi. Zoshenko va Axmatova uyushma a'zolidan chiqariladi. Bu

tayoq O'zbekistonda Zulfiya bilan Sobir Abdulla kabi bir qator ijodkorlarning boshida ham sinadi. Markazdagi voqealardan so'ng o'n kun o'tib, "Qizil O'zbekiston" gazetasida "Sharq yulduzi" jurnali to'g'risida" sarlavhali maqola chop etiladi. Bu ma'naviy tajovuz va terroridan so'ng tanqidiy va jiddiy asarlar kamayib, gazeta va jurnallar sahfalarini bachkana, oldi-qochdi qoramalar bosib ketadi.

Shu paytda yuzaga kelgan "Konfliktsizlik" oqimi o'n yil chamasi davom etib, adabiyot va san'at turg'unlikka yuz tutadi.

Hayotidagi eng og'ir sinovdan bukilmay, boshi tik o'tgan, jigargo'shalari Omon va Hulkarga ham ota, ham ona bo'la bilgan, Hamid Olimjondan qolgan mo'tabar yodgorlik, shoirning onasi Komila ayani ham farzandidek ardoqlab qaragan, nashriyotdan oladigan maoshi va uzug-yulug qalam haqi bilan butun boshli oilani tebratgan shoiraning ayol boshi erkak, tepa sochi telpak bo'lgan edi.

U tepa-yu pastdan keladigan barcha katta-kichik zarbalarga qarshi mardonavor tura bildi. Bu g'alamis va fasodchilar, razil va hasadchilarning bir kun kelib uning yuksak insoniyligi, shon-shuhrati changida qolishlarini ko'ngli sezardi. Shunday bo'ldi ham. Uning ulus va vatanga xizmati

yo'lidagi zahmatlari Xalq shoiri unvoni, Davlat, Xalqaro Javoharlal Neru hamda "Nilufar" mukofotlari bilan taqdirlanganda fitnachilar in-iniga kirib ketdi.

Biror fikrga qo'shilib-qo'shilmasklik, nuqtai nazar, tanqid va tahlil har zamon bo'lgan va bundan so'ng ham davom etadi. Undan o'zini olib qochgan kishi — o'jiz, benavo kimsadir.

Kuchli shaxsiyatlar bag'ri keng, qalbi daryo insonlar o'zgalarining xato va nuqsonlarini ham zimmalariga oladilar. Yoshlarni, o'zidan keyin kelayotgan avlodni ayaydi, zamonning turli shamolaridan qo'riydi, himoya etadi. Ba'zan esa bu "faoliyat" davr taqazosi bilan shaxsiy manfaatlardan, guruhbozlik va mahalliychilikdan kelib chiqib, nomi ne qadar ulug' sanalmasin, supراسi quruq, mukamallikdan yiroq, iste'dodsiz kishilarning, qobiliyatlarini ko'ra olmay qilgan xurujlaridan iborat bo'lgan. Ancha-muncha nomdor kishilarga ham vatan va vijdon, oshqozondan afzal ko'rimagan.

Tanqid madaniyatining ham axloq odobi, andisha-yu, tartib qoidasi mavjud bo'lib, haqiqiy maktab va gardi saroy ko'rgan, ko'zi ochiq oydin kishilar buni yaxshi biladilar.

Tanqid qilmoq, fikr bildirmoq, so'z aytmoqning qoidasi, mezon va me'yor buzildimi, u fitnaga aylanadi. Fiq-u fasod, fitna-yu fujur bo-

lagagan joyda nosog'lom ilmiy, adabiy va ma'naviy muhit paydo bo'ladi. O'tiz yettinch yil qatag'onlari davridagidek bola otaga, uka akaga aytg'ochilik qilishdek g'ayri insoniy vaziyat vujudga keladi.

Insonning eng buyuk kashfiyoti "so'z" va unga bo'lgan mas'uliyatni Jaloliddin Rumiy hazratlari shunday izoh etadilar. "So'zga boqdim, so'zmi deya, so'zlagan odamga boqdim, odammi deya". Demak og'izdan chiqqan har qanday gap ham "so'z" emas.

Xalqimizda esa "Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga, gap gapirib nima qilasan, onasi bevaqt tuqqanga" degan naql borki, bu "so'z" so'ylamak mas'uliyati naqadar muhim ekanligini ko'rsatuvchi otalar so'zidir.

Boisi "so'z", uning ortida turgan fikr, kishining, kishi ortida turgan ulusning qiyofasi, uning ma'naviy-ma'rifiy darajasining me'zonidir. Dostoyevskiy ta'kidlaganidek, xalqning, uning mavjudligi bilan emas, orzu intilishlariga qarab baholash kerak.

Adolat, haq-u haqiqat hamma narsadan ustundir. U, hatto vatansparvarlik, millatparvarlikdan ham oldin keladi. Boisi, adolatni bor bo'y-basti bilan anglab yetmagan yoki uni chetlab o'tmoqchi bo'lgan har qanday inson asl yurt va ulussevar bo'la olmaydi.

Dono odamda uch xislat namoyon bo'ladi. U eng avvalo, birovlariga bergan maslahatiga o'zi amal qiladi. Atrofidagi kishilarning nugson-u kamchiliklarga sabr-toqat etadi va hech qachon haqiqatga qarshi bormaydi deganida Tolstoy ham shuni nazarda tutgan bo'lsa kerak deb o'ylayman. Hech kim halol va to'g'ri tanqiddan tashqarida qolmasligi kerak. Ayniqsa, ijodkorlar. Adabiyot va san'at ahlining undan ihotalanishi, san'atkor sifatida yetilmasligiga yoxud shakllanmay turib, sinishiga olib keladi.

Afsuski, bizda haqiqiy halol adabiyotshunoslik, to'g'ri tahlil yo'qdir. Hamma narsa shaxsiy manfaatar, subektiv qarash-u munosabatlar ustiga qurilgan.

Kishi yolg'izlikda yovuzlashganidek, e'tiroz-u tanqiddan ustun turgan odam ham borgan sari o'zidan ketib, o'zini shu sohada hokimi mutlaq his etadi. Ayniqsa, bunday kishilar insonlar taqdirini hal eta boshlasa bormi? Xudo urdi deyavering. U endi hatti-harakatida chek-chegara bilmaydi. Nugson va xatolarini chuqurlashtirib, uni jinoyatga aylantirib boraveradi. Ma'naviy jinoyat, ma'naviy terror esa hech bir unsuri bo'yicha jismoniy qatag'ondan farq etmaydi. Oxir-oqibat ixtirochilarini o'z qilmishlaridan hosil bo'lgan balchiqdan iborat chohga tortib ketadi.



...Ming to'qqiz yuz o'ttiz yettinchi yillar...
Ulusning ko'zi ochiq oydinlarining boshida o'q g'uvillab, qilichlar o'ynagan, hibsonalar to'lib-toshib, Sibir o'rmonlarida odamlar tosh qotib, qurtbon bo'layotgan ayanchli kezar...

Toshkentda istiqomat qilayotgan Isroilovlar oilasi ham motamda. Oila bir yo'la ikki jigarbandidan aytiladi. Dastlab Xorazm viloyatida rahbar lavozimida ishlayotgan jigargo'shalari Ismoil Isroilovdan judo bo'ladilar.

So'ngra Toshkent shahri hokimiyatida mehnat qilayotgan Normat Isroilov.

Chingiz Aytmatovning qiblagohi, O'sh viloyati rahbari To'raqul Aytmatov bir yuz-u o'ttiz yetti nafar qirg'iz xalqi oydini bilan bir g'isht zavodining o'chog'ida qanday otib tashlagan bo'lsa, Isroil va Normat Isroilovlarni ham xuddi shunday qatl etadilar.

Bu azob-uqubat, bu dard-u alarn, bu cheksiz musibatni ko'tara bilmoc uchun Zulfiya Isroilova bo'lish kerak edi.

Agar Qirg'iziston mustaqillika erishmagani-da ustoz Aytmatov otasining qayerda va qachor mahv etilganini bilmay o'tib ketar edi.



Bu fojeali voqeani kechasi go'y boqib yurgan bir cho'pon ko'rib qoladi va o'limi oldidan hech kimga so'zlamaslikni tayinlab, qiziga aytadi. Sobiq Ittifoq tarqagandan so'ngina kampir bu voqeani odamlarga so'ylaydi. Umumiy qabriga ko'milgan bir yuz o'ttiz yetti kishining jasadi qoldiqlarini topishdi. Chingiz og'aning taklifi bilan asarlaridagi Onabayit kabi bu manzilni qirg'iz xalqining shonli, sharaflı insonlari so'ng makon topadigan Otabayitga aylantiradilar.

Naqadar alamli va qayg'ulik, sakson yoshga to'lishiga sanog'li oylar qolganda oddiy shamollash oqibatida hayotdan ko'z yumgan ulug' Chingiz Aytmatov ham endi shu yerda. Shahid qiblagohi, padari buzrukvorining yonida yotibdilar...

Ikki aka ham hibsga olingan. Mushtipar singil Zulfiya qo'lida tuguncha bilan hech bo'lmasa ularning qayerdaligini, hayotligini bilish uchun qamoqxonama-qamoqxona tentiraydi. Qayerga bormasin, umid-u ilinj mujdasi yo'q. Shu vaqtlarda kimdir yarim kechasi eshik qoqib, uylariga keladi. O'zini tanitmaydi, qo'lidagi maktubni beribog'g'oyib bo'ladi.

Gazeta parchasiga shunday jumlalar yozilgan edi: "Biz o'sha joydamiz. Ertaga nima bo'li-

shi noma'lum. Zulfiya bilan Hamidjon tinchmi? Ulariga tegishmadimi? Divdor qiyomatga qolganga o'xshaydi. Omonda bo'linglar..."

Ha, akajonim-a, o'zi ne ahvolda-yu bizni o'ylabdi-ya, deya xatni ko'z yoshi oqayotgan yuziga bosadi Zulfiya.

Bu dahshatli, so'z ila izoh etib bo'lmas holat va fojealarga yuragim qanday dosh bergan, halihanuz aqlim yetmaydi, der edilar opa juvonmarg ketgan gardoshlarini alamla eslab.

Biroq Zulfiya opa sevimli akalarning xoklarini topa olmadilar. U kishining nozik vujudı, latif qalbi va zarif ko'nglida cheksiz buyuk armon va hasrat yashardi. Bu jigargo'shalari va sevimli yorining achchiq taqdiri, so'z ila ifodalab bo'lmas og'ir, sanchiq'li og'riq va azob edi.

Ikki ulug' shaxsiyat, Zulfiyabegim va Chingiz Aytmatov taqdirdosh, qismatdosh ijodkor edilar. Ularning bu achchiq yillar hasratini bir-birlariga aytib dardlashganlarining guvohi bo'lganman.

Kuy ham kuygandan chiqadi, kuygan yerda yaxshi o't bitadi deganlaridek, bu azob-u iztiroblar har ikki ijodkorni ham hayotga o'zgacha ko'z bilan qarashga, har doim haq-u haqiqat yonida turishga o'rgatdi.

Zulfiya opa bu iztiroblarni shunday izohlaydilar.

*Hamon e'htodim — haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'bage.
Yemira olmaydi o'kinchi taqdir,
Osuda o'radi ruhim abada.*

Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'ipon, Usmon Nosir kabi yuzlab oydinlar Stalinoberiya myasorubkasiga tushib, shahid ketadi. Vohid Zohidov va Mirzakalon Ismoiliy kabi yuzlab ziyolilar esa Sibir qarag'ayzorlarida, temir panjaralar ortida azob-uqubatlarga duchor bo'ladi.

Tong otib, kun botib, umrlar elga sovrib, be-nuda o'tayotgan musibatli damlar. Baxt ham, musibat ham qo'sha-qo'sha degandek, buning ustiga istak Ikkinchi Jahon urushi boshlandi.

O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasiga raislik qilayotgan Hamid Olimjon va jamoaga Pushkin, Lermontov kabi rus, Shekspir kabi jahon klassiklarining asarlarini o'zbek tilida qayta nashr etish vazifasi topshiriladi. Shoir va rahbarning yoshi qotadi. Axir bu asarlarni endilikda xalq jushmaniga aylangan uning kechagi do'stari, namkasblari tarjima etgandilar. Kimga bermaslar darajasida tarjima eta olmaydi. O'ylay-o'ylay nasalani six ham, kabob ham kuymaydigan ushini topadi.

“Bog'chasaroy fontani” (Usmon Nosir tarjima-si), “Boris Godunov” (Cho'ipon tarjimasi), Shekspir saylanmasi (Vohid Zohidov tarjimasi) nashrga tayyorlanib, chop etiladi. Kitoblarning o'ng zarva-raqlarida tarjimon ismi familiyasi ko'rsatilmagan holda Hamid Olimjon, Zulfiya, Hamid G'ulom tahriri ostida degan yozuv bor edi.

Zakiy kitobxon bu nozik ishoratda asarlarning asl tarjimonlari kimlar ekanligini fahmlardi.

“Faqat shu paytda qiyналиb yashayotgan oilalarga qalam haqini yetkazishning imkoni bo'lmagan edi” degan edilar Zulfiya iztirobli ohanda.

Xuddi shu paytda To'xtasin Jalolov tayyorlagan ilk “O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi” Mirzakalon Ismoiliy tarjima qilgan Lermontovning «Zamonamiz qahramoni» kabi qator asarlar tarjimasiga o'z nomini qo'yib chop etganlar, Maqsud Shayxzodani Sibirga yo'llab uyini egallab olgan ijodkorlar ham bor ediki, bularnida aytib o'tmoq ham joizdir.

VIII

Sharafli, shuurtli kishi har qanday og'ir-u yengil dam va daqiqada millat, el-yurt ko'z o'ngida bir xil qiyofada, haq-u adolat tarafida turadi. Unda insonlik imoni va ijodkorlik vijdoni butun ekan, hech qachon katta-kichik tazyiqlarga bo'yin

egib, zamon va davronning o'tkinchi epkinlariga berilib, aldanmaydi. To'g'ri yo'ldan adashmaydi. Oqni oq, qorani qora deydi.

Goh zavqli, goh g'amgin subhatimiz davom etar ekan, opa o'sha, boshiga olam g'ami ag'darilgan fojeadan so'ng, qirg' olinchi yilgi ruhiy va ma'naviy zug'umdan keyin uzoq muddat qo'llariga qalam ololmaganlarini aytdilar. Abdulla akaning "olti oydir she'r yozmayman, yuragim zada" degan satrlarida jon bor ekanida deymen opani chalg'itmogchi bo'lib. "To'g'ri, Abdulla haq. Buni boshidan kechirgan biladi. Ijodkorning qalbi nozik bo'ladi. Kichik bir narsadan boshi ko'kka yetib, yuragi to'lib-toshib yozsa, shunday kichik bir tazyiqdan astoydil o'ksinadi" dedilar. Men, adolatsizlik va nohaqlik qurboni bo'lgan haqiqiy ijodkor bundan ta'sirlanib, yana-da yaxshiroq, kerak bo'lsa kamerada ham yozaveradi deya o'ylashimni aytdim.

Biz opa bilan hamma narsani, hatto siyosat va uning qabariq qirralari haqida ham ochiq, bir-birimizga ishongan holda suhbatlashdik. "Qalb javohiri darz ketganda uning bitishi qiyin bo'lar ekan. Vaqt kerak bo'lar ekan. Undan tashqari qanday jamiyatda yashayotganingizni unutmang. Ilohim boshingizga bunday kunlar tushmasin" dedilar opa hayot tajribalaridan kelib chiqib duo qilarkanlar.

Zamonlar kelib, o'kinch bilan bu dono va zakiy, yuksak fahm-farosatli, hech bir katta-kichik narsani e'tibordan chetda qoldirmaydigan butun shaxsning neqadar haqligiga amin bo'ldim. Odam bolasi shunday, yomon kunlarni ko'rmay, yaxshi kunlarning, yomon odamlarni ko'rmay turib, yaxshilarning qadriga yetmas ekan.

Xalqimizning tom ma'nodagi fidokor shaxsiyatlari va san'atkorlari Hamid Olimjon va Zulfiyabegim imon-e'tiqodlaridan, yuraklarining tub-tubidan kelgan eng oliyanob his-tuyg'u — odamlarga, el-yurtiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat, sadoqat-u samimiyat qanotida bugungi kundagi ardodli yuksaklikka ko'tarildilar.

Gohida uzoq o'tirib suhbatlashib qolardik. Sigilgan damlarida telefon qilib, chaqirardilar. Jizzax, jizzaxlik qarindosh urug'lar, viloyatdagi ijodkorlar haqida so'rab surishtirar, muhokama va munozara etmagan mavzuimiz qolmas edi. "Sizdan bir iltimosim bor" dedilar bir kuni subhatimiz nihoyasiga yetganda g'amgin ovoza.

Sergak tortib, dardehil va ma'yus ko'zlariga qaradim. "Ko'rishganingizda Sharofjonga ayting, meni Hamid Olimjonni yoniga qo'ysinlar"...

Ikkiniz ham gap-so'zsiz karaxt holda uzoq o'tirib goldik. Tilimizga hech bir kalima kelmas edi.

Hayotning past-balandliklari toliqtirgan, o'z qismatini ishonib topshirayotgan, o'zlaridan yosh insonning bu suhbatdan ko'p o'tmay qazo sharbini sipqorajagini opa bechora qaydan bilsin.

Opa Hamid Olimjon hayotdan ko'z yumgan ondan boshlab yonida turgan, hayotining eng og'ir kunlarida tirgak bo'lgan insondan, Hamid Olimjonning sadoqati shogirdi va halafidan ayrilgan edi.

U kishining bu kunlaridagi ahvoli ruhiyatini so'ylamoqqa til, yozmoqqa qalam ojizlik qiladi.

Hamid Olimjon bilan Zulfiyaxonim abadiyatga bosh qo'yg'an muqaddas manzilda haqlariga duo etib, Qur'oni karim suralarini takrorlayman. Ollohdan rahmat tilayman.

Ularning yonlarida nimalar bo'layotganini so'rayotgandek Oybek domla bolalarniki kabi beozor ko'zlarini sizga tikadilar. So'roqda teran nigohli Abdulla Qahhor, do'stimiz O'ktam Usmonov. Ular ortidan Odil aka, Pirimqul aka ketdilar. Bu insonlarga shogirdlik, salaflik burchini ko'ngildegidek ado eta olmadik...

Endilikda Sharof Rashidov ham ular bilan yonma-yon...

Tog'lar... Kishi uzoqlashgach ularning ulug'vorligi va buyukligini yana-da aniq va yaqqol ko'ra boshlaydi. Ozod aka Sharafiddinov "Sizni so-

g'indim, Zulfiya opa!" deganda yana shu ulug'vorlik, hayotligimizda bir-birimizning qadrimizga yetmaslikdek g'ayritinsoniy va vataniy tuyg'ularni his etgan bo'lsa, ajab emas. Ayni damda men ham xuddi shu holatdaman. Ulusimizga xizmati singan sharaflı kishilarimizni, ota-onalarimizni ziyorat etgan kabi mudom yo'qlab turishimiz kerakligini odatdagidek kech anglaymiz va afsus chekamiz. Vaqt esa o'z ishini qilaveradi.


Shu o'rinda Ozod akaning yuqorida qayd etilgan bitiklaridagi ushbu jumlarlar diqqatga sazovordir. "Shoiraning she'rlari haqida, ularning latofat, insoniy jozibası, teranligi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin men boshqa bir savolga javob izlayapman. Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan omil nima? Menimcha, bu uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlari, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan e'tiqodlarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida. Iste'dod ulug' ne'mat. Lekin iste'dodning o'zi bilan ish bitmaydi, shekilli. Ming afsuski, bizda ayrim iste'dodli shoirlar va shoirlar bor. Biroq ular o'zlarining iste'dodlariga berilib ketadilar-u, shunga yarasha inson sifatida ham ulug' bo'lish

kerakligini unutib yuboradilar. Ular vijdonlariga xilof ish qilishdan ham, o'zlari ulug'lagan qadriyatlarini ikki chaqaga sotib yuborishdan ham toymaydilar. Bunga odamning ijodi bir tiyinli qimmatga yoxud salmoqqa ega bo'lmasligi o'z-o'zidan ayon. Zulfiya opaning ibrati shundan dalolat beradiki, har qanday iste'dodning yoniga insoniy fazilatlar qo'shilsagina ijod muayyan salmoq kasb etadi. Bunga esa butun umr bo'yi davom etadigan mashaqqatli mehnati bilan, astoydil jon kuydirish bilan erishiladi".

XI

Xalq o'z kamchilig-u nuqsonlarini ko'rib, tahlil eta bilisagina va tanqidiy ko'z bilan qaray olsagina uning millat o'laroq shakllanishi va taraqqiy topishi to'g'ri yo'ldan ketadi. Aks holda esa barcha sohalar, iqtisod-u siyosat, adabiyot-u san'at, madaniyat-u ma'rifatda ortga ketish yuz beradi.

Asr boshlarida ro'y bergan inqilob, vatandoshlar urushi-yu quloqlashtirish, so'ngida Stalinoberiya qatag'oni usiz ham uch qoloq xonlik o'rtasidagi so'g'ish-u savashlarda tinkasi qurigan qavmi Turomni holdan toydirgan, ilm-u irfon-madaniyat-u ma'rifatning ahvoli Sadriddin Ayniy tasvirlagan holatda edi.



Biz og'zimizni ko'pirtirib, bizda shuncha masjid-u madrasalar bor edi deya, bong urmogchi bo'lamiz. Biroq bu madrasalarda Ibn Sino, Beruniy, al Xorazmiy va Zamaxshariy, Ulug'beg-u Ali Qushchi, Navoi va Jomiy zamonalaridagidek dunyoviy ilmlar, matematika-yu astronomiya, geometriyayu falsafa mantig'-u she'riyat ilmi kabi fanlar keng o'qilmagan.

O'zining yuksak salohiyati, istedod-u mehnati bilan yetishib chiqqan Munavvar qori, Fitratu Avloniy hamda Fayzulla Xo'jayev kabi millatning oldida yurishi mumkin bo'lgan shaxsiyatlar esa mahv etildi.

Hamid Olimjon va Zulfiyalarning hayot-u ijodi ana shu dahshatli, es-hushi butun, ko'zi ochiq odamning boshida qilich o'ynab turgan zamonlarga to'g'ri keldi.

Bu qirg'in-u qatag'on davri davronidan juda kamdan-kam nomdor shoir-u nosirlar qo'l-u vijdonlari gonga belanmay chiga oldi.

Biz kitoblarini o'qib ta'lim olganimiz qator mashhur ijodkorlarimiz hamkasblari ustidan chaquv yozuvi yozib, ularning xuniga zomin bo'lishga majbur qoldilar va bu gunoh azobini hayotlarining so'nggi damlariga qadar ko'tarib yurdilar.



Qatag'on siyosati shunday tashkil etilgan edi-ki, havoni bulg'ab turgan balchiq barcha uchun barobar, hamma unga belanishi kerak edi.

Chingiz Aytmatovdek odamning otasini ota turib o'g'lini qahramon e'lon etib, davlatning eng yuksak unvoni Lenin mukofoti bilan taqdirlar, shundan so'ng u sal boshini ko'tarib o'z fikrini bildirib boshlasa, Habib Abdullayev kabi yo'ldan olib tashlayverardilar. Aslida tuzum bunday nomdor shaxslarni yetishtirib, yo yasab, o'z g'oyasi targ'iboti uchun foydalangan.

Boisi, jamiyat va tuzumda muqaddaslikning, muqaddas narsaning o'zi yo'q edi. Ateizm ko'r-kona, savodsizlig-u madaniyatsizlarcha davlat siyosatiga aylantirilgan jamiyatda bu muqaddaslikning bo'lishi ham mumkin emas edi.

Undan tashqari ulus o'laroq shakllanishi kechikayotgan xalqdan yetishib chiqqan rahbarlar gay bir el-u elatda bo'lmasin, bir-birlarini yeyveradilar. Ularning olim-u rahbar, bitikchi-yu shoirlari ham ulus kabi shakllanmagan bo'ladi.

Bizning kechmish tariximiz ham bu kabi o'prilish-u fojialarga to'ladir. Eng dahshatlisi Cho'lpon-u Qodiriy, Elbeg-u Usmon Nosir kabi mashhur shaxslarning mahv etilishida xuddi shular kabi tanikli arboblarning qo'llari bo'lgan.

Hamid Olimjon o'sha paytdagi O'zbekistonning bosh rahbari Usmon Yusupovga Sharof Rashidovni tavsiya etib, shunday bir davlat va jamoat arbobining yetishib chiqishiga sababchi bo'lgan shaxsiyatdir.

Zulfiya ham jamiyat quturgan dengiz kabi chayqalib turgan damlarda o'tkinchi, qotilona bayroqbozliqlarga berilmay, hech bir hamkasbiga xiyonat etmay, parcha qotgan noniga shukr qilib yashagan, halol va to'g'ri inson, san'atkor edi.

Ming to'qqiz yuz oltmish yetinchi yil "Temur tuzuklari" e'lon qilinib, Samarqandda temuriylar davri madaniyatiga bag'ishlanib xalqaro anjuman o'tkazilishining xayrli epkinlari esgan yillar.

Ibrohim Mo'minovning shu mavuzga bag'ishlanib chop etilgan kitobchasi qo'lma-qo'l.

O'zbekiston adabiyot va san'at nashriyotida qatag'onda qutbon ketgan shoirlarning she'rlari jamlanib "tirik satrlar" majmuasi tayyorlangan. Olim va shoirlar, muharrir-u nashriyot xodimlari qo'lyozmani muhokama etmoqdalar.

To'rda tanikli adiblar, Zulfiya opa ham ular qatorida. Cho'lpon ijodi va shaxsiyati haqidagi gap-so'zlar avjida. Kimsa yurak yutib uni yuzaga chiqishi uchun jonbozlik ko'rsata olmaydi. So'zlash navbati Zulfiya opaga beriladi.

— Cho'ipon "Tirik satrlar"dan joy olgan shoirlarning barchasidan balanddir, — deya mardona so'z boshladi opa va gapini davom etdilar. — Cho'ipon o'z nomi bilan tong yulduzi. U chin-danam yangi turk-o'zbek she'riyatining yulduzi. Uni "Tirik satrlar"dagi shoirlar qatoriga qo'yish tong yulduzini ko'kdan yerga tushirish bo'lmas-mikan... Men Cho'ipon she'rlarining alohida kitob holida chop etilishi tarafdoriman.

Opaning bu mardonavor fikrlari yarim tunda yangragan momaqaldiroqdek barchani birdек hayrat-u larzaga solgan edi.

Bu o'sha payt, o'sha zamonda haqiqiy jur'at-u jasorat, haqiqiy san'at vijdonining aks sadosi edi.

Oltmish yettinchi yilni qo'ya turing, sakso-ninchi yillar boshida men bu haqda hurmatli Sharof Rashidov va Sarvar Azimovlarga so'z ochganman.

Biroq stalinoberiya qatag'oni yopgan ma'naviy jahannam eshigini ochmoqqa hech kim jur'at eta olmas edi.

Zulfiya opaning qalbida armon bo'lib kelgan bu orzuni amalga oshirish bizga nasib etdi. Bevosita Birinchi Prezidentimiz bilan gaplashib, "Yulduzcha" nashriyotini shoir olgan ramziy "Cho'ipon" yulduzi nomi bilan atadik va Ozod Sharafiddinov va Ibrohim Haqul tayyorlagan Abdulhamid

Cho'iponning "Bahorni sog'indim" nomli ilk kitobini chop etdik.

U kishi har qanday iste'dodga befarq qaramas, jon jahdlari bilan ko'mak etardilar.

Ustoz adibimiz Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani o'sha davr adabiyoti va ma'naviy hayoti uchun inqilob kabi bir voqea edi. Roman o'zbek tilida ilk bor nashr etilishi bilan rus tiliga o'g'rib, Moskvada uch bora ketma-ket chop qilindi.

Biroq bu roman kun yuzini ko'rgunga qadar muallif Pirimqul Qodirovga "onasini uchqo'rg'on-dan emas, to'rtqo'rg'ondan ko'rsatishgan". Asar nashriyot g'aladonlarida yetti yil chamasi chang bosib qolib ketganda adib qon yutgandi.

"Yulduzli tunlar"ning yuzaga chiqishida Sharof Rashidov va Komil Yashin ustozlar qatorida Zulfiya opaning ham alohida xizmatlari bor edi.

Romanning ilk boblari ham ming to'qiz yuz yetmish uchinchi yildayoq "Saodat" jurnalida e'lon qilingan, kitob holida esa yetmish to'qizinchii yil o'quvchi qo'liga yetib borgan edi. Buyuk Bobur haqidagi asarning yuzaga chiqishi uchun barchamiz kurashgan edik. Marhum do'stimiz O'ktam Usmonov bilan bir nusxani halloslagancha dam olish uchun uchib ketayotgan Sharof Rashidovichga yetkazganimiz va u kishi qaytib kelgach,

asarga Hamza nomidagi davlat mukofoti berilgani bugun bir tarixdir.

Pirimqul Qodirov Hindiston safaridan so'ng keyingi o'n yil mobaynida asarning davomi "Avlodlar dovoni"ni yozdi.

Navro'z bayramini ta'qiblagan vatansiz va millatsizlar, Amir Temur va Bobur kabi tarixiy shaxslar, ulug' ajdodlarimiz otini xalq yodidan o'chirish siyosatini boshladilar.

Tiriklarni Gdlyan va Ivanov hamda ularning shotirlari Sibirga jo'natar, ma'naviy terrorchilar esa xalqning tarixiy daholari va bugungi oydinlarga xujum boshlagan edilar.

Hindistonda qariyb uch yuz-u ellik yil hukmronlik qilgan Boburiylar saltanatiga asos solgan, benazir shoir va olim Bobur haqida ikki roman yozgan Pirimqul Qodirovdek ulug' adibning boshiga malomat toshlari yog'ila boshlagan edi.

Bu ta'qiq-u tazyiq, malomat toshlaridan qochib Do'rmonda jon saqlayotgan Pirimqul akaga barchamizning rahmimiz kelar, bir og'iz iliq so'z bilan bo'lsa-da dalda berishga urinardik.

Cho'pon tayog'ini beliga qo'yganча g'amgin kezayotgan adibning yelkasidan bosib turgan turg'un tuzum va xoinlik toshining zarbasidan barchamiz iztirobda edik.

Shunday uqubatli kunlarning birida Zulfiya opa Pirimqul akani Do'rmondagi yozliklariga da'vat etadilar.

Yozuvchiga endigina nashrdan chiqqan uch jildliklarining birinchisini samimiy dastxat bilan taqdim qiladilar.

"Shalola" deya nomlangan kitob orasidagi she'riy maktubda inson va ijodkorning o'z hamkasbi, millatning asl yozuvchisiga bo'lgan ezgu tilaklari, ishonch-u e'tiqodi joy olgan edi.

Mana o'sha she'r:

«Hurmati Pirimqul!

*Adab ahli qalamga chin vafoni Sizdan o'rgansin,
Ajoyib tole bilishni, bu jafoni Sizdan o'rgansin,
Yonib o'tlarda toblash, har hijoni Sizdan o'rgansin,
Bu tarz san'atga maftuni adoni sizdan o'rgansin!*

*El-u yurt ibtidosidan tushib aqli zako birlan,
Asrlar qatlamiida jo tirik amri nido birlan,
Bayonga jazm etmoqqa dil ichra sham'ziyo birlan,
Tutib mahram qalam nomli asoni Sizdan o'rgansin.*

*Bu yon moziy, bu yon gulshan zamon, qonda
Azizdir qay biri, fikr-u yurakka ko'p qiyin bilmoq,
Va lekin ikki daryodan javohirlar topib termoq,
Va elga tuhfa etmoqda fidoni Sizdan o'rgansin!*

*Sizning ijodga tobelik havas ulg'aysa jonimda,
Chiroyli rashk yoqib gulxan, sehr o'ynashsa*

*gonimda,
Kamina ne ko'rdi, ne dedi beburd jahonimda,
Bahodirlarcha tan olmoq xatoni Sizdan*

o'rgansin!

Sizga ezgu niyatlar bilan Zulfiya».


Aziz va qadrlı Zulfiya opa!

*Yugnakıy hazratları yuzda yuz haq ekanları!
Qani o'sha halol odam? Menga bir halol odam-
ni topib bering! — deya xitob etganini anglamoq
uchun ham zaqti zamon, imon-u vijdon oromi
kerak bo'lar ekan.*

*Bunday fikrga kelmoq uchun ham juda ko'p
suvlar oqib o'tishi, so'qir ko'zlar ochilishi va yer-
dan uzilgan oyoqlar uzanishi kerak bo'lar ekan.*

*Aqlimdan shu tushunchalar kecharkan, Siz,
qadrlı To'ra aka Sulaymon uchchovimiz muhoka-
ma etganimiz Vofifning bitigi yodimga kelaveradi.*

*Bu jahon mulkida men,
To'g'ri holat ko'rmadim.
Harna ko'rdim, egri ko'rdim,
O'zga bobar ko'rmadim.*




*Bandalarda siym-u
Beklarda adolat ko'rmadim.
Oshnolar suhbatida,
Ham sadoqat ko'rmadim.
Hech kishida Haqqa loyiq,
Bir ibodat ko'rmadim.*

*Do'rmonda birga kezmanimiz yo'laklarda
mahzun aylangancha beixtiyor haq-u to'g'rining
yonida tura oladigan, to'g'ri va sog'lom fikrlay bi-
ladigan inson odam kabi suhbatlashish mumkin
bo'lgan bir fozil, komil va butun shaxsiyatni topib
bering, deya hayqirgim keladi!*

ZOTAN...

*Dunyoni kezdim sarsari,
Neki ko'rdim noqis bari.
Odami zodning sarvari,
Jonga jon bir inson yo'q.*

*O'shal zar-u zo'rdir, ey voh,
Qursog'i but sherdir, ey voh.
Ahli zako erdir, ey voh,
Yarq etgan bir iymon yo'q.*



Muhabbat ham g'arib bu kun,
Sadoqatning usti yupun.
Adolatkim yig'lar beun,
Jon chekar bir jonon yo'q.


O'g'rini o'g'ri deb bo'lmas,
To'g'rini to'g'ri deb bo'lmas.
Erksiz ulus yuzi kulmas,
Himo etar hagon yo'q.

Loy tuproqdan dur yasagan,
Bosh birikmay qur yasagan.
O'tkinchidan pir yasagan
Bunday g'alat davron yo'q.

Tuproqqa qorishgan elim,
Qismatla yarishgan elim.
Toqatla borishgan elim,
Ko'ksi qalqon bir jon yo'q.

Alamin daladan olgan,
Ochiqqan boladek tolgan.
Yo'ldan adashib qolgan,
Topinar bir makon yo'q.

Yulg'ich kelsa osh damlagan,
Sabr yukini g'amlagan.



Shukrdan ko'zin namlagan,
Farg'onadek Vatan yo'q.


Hayot borki — umid yashar,
Andijonsoy to'lib-toshar.
Namangan dovondan oshar,
Marg'ilon-u Qo'qon yo'q.

Mehrkim ikki ko'zdadir,
Jur'at-jasorat so'zdadir.
O'zim deganim o'zdadir,
Sukut saqlar zamon yo'q.

Shunday ekan, Zulfiya opal! Saboq olimmagan
tarixlar takrorlanaverar ekan!
Ijodkor ahliga adolatsiz munosabat, bu qalb
qasrining sultonlariga zug'um o'tkazish keyingi
o'n yilliklarda ham to'xtamadi.
Shu damlarda bitilgan ikki bitik.

Javohirlar sandig'in,
To'ldirgan shoiralalar.
Ulus dardi hasratin,
Sildirilgan shoiralalar.

Nurtashna nigohlarni,
Toldirgan shoiralalar.



Ulus orzu umidin,
Yeldirgan shoirlar.

Ishq-muhabbat totini,
Bildirgin shoirlar:
So'z ila ko'kdan oyni,
Oldirgan shoirlar.

Tuyg'usi zehnin orida,
Qoldirgan shoirlar:
O'zlatib-u bo'zlatib,
Ko'ndirgan shoirlar.

Goho somondan saroy,
Soldirgan shoirlar:
Bo'lmas elni bitikda
Bo'ldirgan shoirlar.

Botllarning bag'rini,
Tildirgan shoirlar:
Satrbozlar sochini,
Yuldirgan shoirlar.

Nokas bo'yniga narxin,
Ildirgan shoirlar:
Qoyil-ey er gul umrin,
So'ldirgan shoirlar.

U nabbosh² Nasrullohlar,
O'ldirgan Nodiralar.

* * *
Ehsontalab satxo'r,
Hech asl shoir emas.

Hazrat Lutfiy o'tirgan,
Davraga doir emas.

Ekmak qulidir ruhda,
Valiylik zuhur emas.
Tiyratida hamiyat,
Farosat zohir emas.

Amolidan osiy-yu,
Kofirlar kofir emas.
Qilmishidan shaytonning,
Kufrida kufr emas.

Kun botar-u tong otar,
Har sahar sohir emas.
Qalandarning qahridan,
Zamoni oxir emas.

Boisi ularga inson qadri, xalq manfaati va vatan saodati emas, mansabu mavqe, mulki davlat kerak edi!

Ular mana shu dahshatli ohangrabodan ayrilmaslik uchun har qanday razilikka hozir edilar!

Biroq, mol egasi, mulk egasi, qani uning ilk egasi?..

Zamonning to'zganini, otdan eshakning o'zganini ko'r deganlaridek, bu kunlar uzoq davom etmadi!

Millatning sharaflari farzandlari uchun qazilgan chohlarni ular aslida o'z bo'ylariga o'Ichab kavlaganlarini ko'rgan xaloyiq haq-u haqiqatni tantanasiga imon keltirdi.

Ularning qismati qadari, hayotlarining sharafsiz so'ngini ko'rgan, xulosa chiqargan qalamlardan alamli satlar to'kiyadi...

*Qirchang'i-yu cho'birlar,
Tulporiy yurishdalar.*

*Asli-nasli xoinlar,
Shohona turishdalar.*

*Muvofiq-u munofiq,
Zulmula borishdilar.
Madhi sano bahsida,
Bir-birin surishdilar.*



*Sharafsizlar sharaf, haq,
Ishiga qarishdilar.
Orsizlik poygasida,
Basma-bas yarishdilar.*

*Temuriy zamon qayda,
Ul tuzum, sarishtalar.
Zamon-u davron to'zdi,
Otda befarishtalar.*

Zulfiya opal!
Ular o'zlarini mahv etdilar ilm olmasdan! Ilm olganlar o'zlarini mahv etdilar amal qilmasdan! Amal qilganlar o'zlarini mahv etdilar, ixlos qilmasdan!

Biroq shunday dam-u daqiqa yetdiki, ulus inilgan manzillar sarob bo'lib chiqdi.

Insonlar suyanmoqchi bo'lgan orqatog'lar nurab, boshpana deb bilgan qal'a-yu qo'rg'onlar loydan ekanligi oshkor bo'lganida biz yana dunyoviy adolat-u qadriyatlar tomon yuz burdik.

Endigi maqsadu muddao — bitta. Bu ham bo'lsa tutganimiz sharaflari yo'lda adashmay, ulug' hadafarga to'g'ri va sog'lom boqa bilmov va eta bilmovdir. Alhol:



*Har kinga nasib etmas,
Inson kabi bir yurish.
Nokaslarga bosh egmay,
Mudom mag'rur, tik turish.*

*Baraka uchar uzog,
Xonadoningda urush.
Peshonangning bittigidir,
Bir omadu bir sho'rish.*

*Qadar ham yuz o'girar,
Ishda buzilsa chirish.
Kori ham topilmagay,
Tog'dan ketirsang chirish.*

*Odami nashi ekansan,
Avval o'zingla borish.
Yo'qsa so'zsiz, muhaqqaq,
Qismat qilichin ko'rish.*

*Hech marhamat beklama,
Buzug'dir arqog-o'rish.
Asli g'ofil zirvada,
Inson qadri bir qurush.*



X
Chig'atoy qabristoni darvozasidan kirishingiz bilan sizni ma'yus va zakiy nigohli Botir Zokirov qarshilaydi...

Bunda orom topganlar vatanimiz tarixining oltin harflar ila yozilgan zarvaraqlariga aylangan-dir.

Zotan, biz tuproqdan yaralganmiz. Tuproq to-mon keturmiz. Yerdan ozmiz, yolg'izmiz. Ko'proq tomon keturmiz.

Va, vatanga aylanajakmiz! Va tanimizda Vatan yashayajakdir!

Bu aziz va tabarruk tuproqni tark etarkanman, orgaga o'g'rib vatanga aylanib qolgan gondosh va jondoshlar bilan xaytlashgan bo'laman. Yana beix-tiyor, nigohim faylasuf, rassom va buyuk san'akor Botir Zokirovning teran nigohi bilan to'qnashadi. U kishining jurnalimiz tomonidan berilgan "Jamiyatimizda, ma'naviy va madaniy hayotimizda qanday jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirish lozim deb o'ylaysiz?" degan savolga "Bu jamiyatda biror bir o'zgarishni amalga oshirishni o'ylamoqning o'zi absurd" deya bergan javobini xotirlayman.

Kechmishning "Olg'a, faqat mening ortim-dan" degan ura-urachilik siyosati ne qadar tomir otmagan bo'lsin, xalqimiz orasida Botir Zokirov



kabi sog'lom, teran va to'g'ri fikrlaydigan oydinlar bor edi. Shunday shaxsiyatlari bor xalqgina, xalqdir.

...Sakson ikkinchi yil yozining so'ngida Hulkar opa va (Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimning qizlari, filolog olim) umr yo'ldoshlari, tarixchi olim (Alloh rahmat etgan bo'lsin!) Omon Oybekovich Toshmuhamedov bilan Hulkar opa orzu qilib yurgan ota yurt sayohatiga chiqdik. Biz qo'shni edik.

Hamid Olimjonning Jizzax shahri markazidagi, mustaqillikdan so'ng istirohat bog'i o'rtasiga ko'chirilib, ta'mirlangan muhtasham haykaliga gul qo'yib, ziyorat etdik. Bizning qishlokda, Vafogul tog'aning uylarida yashadik.

Hulkar opa otalari Jizzaxdan Samarqandga qatnab o'qigan ko'chalarda, u kishi kuylagan ko'm-ko'k vodiya senu'g' kabi uchib yurardilar. O'smatdan Baxmalga ketayotganimizda suvi ozaygani uchun Sangzor daryosidan kechib o'tardik.

Saraton chiqqan, tog'lardagi so'nggi qorlar erib, irmoqlar jildirab, daryo suvi ham tortilib qolgan paytlar edi.

— Bu o'sha Sangzor daryosining boshlanishi-mi? — deya so'radilar Hulkar opa suvning ozligidan hayron bo'lib.

— Ha, bu o'sha Sangzor. Tepa qismi Toshloq deyiladi. Sarbozor degan joyda Zarafshonning bir irmog'i bilan qo'shilib, ulkan daryoga aylanadi, — izoh bergan bo'ldim.

— Uyimizda bu daryo haqida ko'p gapirildirdi. Nega suvi oz? — so'rashda davom etdilar.

— Tog'lardagi qorlar erib bitdi, Hulkar opa. Yoz bo'yi to'lib-toshib oqgan suvlar endi yo'q, — javob qildim.

Kutilmaganda Hulkar opa sababchi bo'lib, yozilajak she'rning birinchi satri tug'ilgan edi. Manzilga yetib borgunimizga qadar bitik qog'ozga tushdi. Mana o'sha she'r:

Qorli tog'lar erib bitdi,

Endi suvlar yo'q-yo'q.

Qo'limdagi qung'onginam,

Toshga tegar to'q-to'q.

Seni so'rab borganimda,

Opang dedi yo'q-yo'q.

Qaromigday qaro ko'zlar,

O'q, otdilar o'q-o'q.

Oyqortog'ning darasiga,

Erti tushar qorlar.

Qorli tog'lar sanamiga,

Bo'laidu-yey zo-orlar.

*Muhabbatga zorigqanlar,
Bo'limaslar xo-orlar.
Sadogatning sinoviga,
Mayli quring, do-orlar.*

Agar Hamid Olimjon dunyoga yana qaytib kelganida yana so'zsiz o'zining yakka-yu yagona, betakror Zulfiyasini izlab topgan bo'lar eli.

Munis va mehribon, mahzun va sevimli Zulfiyabegim esa ko'kdagi yorqin yulduz kabi yonib o'chgan Hamid Olimjonini kutib yashar edi. Ularni bir-birlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Darvoqe, sevgi, sadogat timsoliga aylangan mehr-muhabbat timsoli bu kunni kutib yashadi.

Ro'zi mahsharda diydor ko'rishmoq uchun uning huzuriga yo'l oldi...

Hamid Olimjon, ijodi, asarlari kabi xalqimizning ma'naviy qiyofasi, mangu qo'shig'iga aylangan shaxsiyatdir.

Mehr-u oqibat, sadogat-u she'riyat malikasi Zulfiyabegim esa afsonaviy Hamid Olimjonning hech kimga aytmagani so'ngsiz, mangu qo'shig'idir.

Shu muqaddas tuproq, sharaflı ulusimiz, ona tilimiz yashar ekan, bu qo'shiqlar abadiy yangrayajakdir!



Siz muhtaram, yuksak didli o'quvchiga taqdim etilayotgan ushbu to'plamni Zulfiya opa alohida diqqat va tamkinlik bilan hozirlab, she'rlarni saralaganlarini bilaman. Yangi she'rlarini o'qib berganlari va maslahatlashib, kitobni tartib etganimizga ham o'ttiz yildan oshibdi.

Kitobdagi she'rlarni va unga nom tanlashni beg'ubor qalbli, bola kabi ko'ngli toza inson hamda olim Hukar opa bilan maslahatlashdik.

Zulfiya opaning dastxatlari va menga yozgan xatlarini varaqlar ekanman, bu satrlar orasidan u kishining mehri nafasini, samimiy so'zlari va nigohlarini tuygandek bo'ldim.

Shunday bitiklardan birini 1979-yil Bokuda, ozar tilida chop etilgan «Tuproqqa sajda» deb nomlangan kitoblari yozib bergan edilar. Ko'nglimni tog' kabi ko'targan bu samimiy so'zlarni majburiyat, omonat o'laroq qabul etganman va hamon shu fikrdaman.

U kishi bilan uchrashganda, gohida esa bilxossa, ko'ngillarini so'rab va shu ikki og'iz so'zni aytmoq uchun qo'ng'iroq qilib, mehr-u samimiyatla takrorlar edim.

«Zulfiya opa, men sizni yaxshi ko'raman!» «Men ham» der edilar opa boshlari ko'kka yetib va ishda bo'lsalar darhol xonalariga, bog'da bo'lsalar dachalariga taklif etardilar. Uzoq dardlashardik.



U kishi sizning ikki og'iz iliq so'zingiz-u muno-sabatingizga o'n misl mehr-muhabbat, insoniylik va oliyanoblik bilan javob qaytarardilar.


Bugun, buyuk armon va cheksiz mehr ila yana shu so'zlarni takrorlayman. «Zulfiya opa, men sizni yaxshi ko'raman!»

Qadri, aziz va munis Zulfiya opal Bugun bu so'zni Siz va ustoz Hamid Olimjon sevib ardoqlagan, boshiga ko'targan qadim va shavkatli Turon diyori, bu go'zal va betakror yurtning qalbi-da ezgulik, mehr-u oqibat, adl-u adolat yashagan katta-kichik vatandoshi takrorlamogda.

Zotan siz, xalqimizning har qanday dam-u daqiqada, davr-u davronda haqiqiy insoniylik va san'atkorlik or-nomusini iymon-u insofla saqlagan, so'z aytmoq mas'uliyatini ulusning qismat-u qadari deb bilgan, insonning insonga bo'lgan mehri oqibati va sadogatining timsoliga aylangan shon-sharafi farzandi, shaxsiyati va ijodkorisiz!

Sabr-u toqat, iroda va matonatning abadiyatga daxldor obidasisiz!

Siz, millatimiz vijdoni, iymon-e'tiqodi va mardona ovozi sanalmish Hamid Olimjondan buyuk inson va mutafakkirning sevgisi, mehr-muhabbati va sadogatiga sazovor, uning orzu-umidlariga sodiq, ahd-u vafo timsoliga aylangan siymo, sadogat saroyining abadiy ramzi va malikasi sifatida sizni sevgan xalqimiz ongi, shuuri va qalbida mangu yashayajaksiz!



Zarofat-u latofati, nafosat-u tarovati bilan o'lkamizni go'zallik, xayr-u saxovatga to'ldirib bahor kelayotir!

Ulusimizning Siz va Hamid Olimjon kabi bahoriy qalb egalari, shon-sharafli, ulug' farzandlari va san'atkorlarini so'rab, so'roqlab, yana bahor kelayotir!

Siz mo'tabar ijodkorlarni qadim Turon yurti, ulusimiz xotirasida ardoqlab, yo'qlab, so'rab so'roqlamogdal!

Siz va ulug' ustoz Hamid Olimjon Vatan timsoliga aylangansiz!

Millat borkim, Vatan borkim, millatsiz bo'lmas!

Zotan bu aziz tuproqning bag'ri ham bizga Vatandir!

Biz Vatanga aylanajakmiz! Va tanimizda Vatan yashayajakdir! Va yana bahor kelajak, Sizni so'roqlab!

Xuddi buyuk va betakror Hamid Olimjon sog'inib, suyib so'roqlagani kabi...


*Sevgi desam, faqat sen desam,
Sening bilan yashasa qalbm,
Sen desam-u, butun dunyoning
Sho'rishiga quloq solsam jim.*



Quyun kabi aylanar boshim,
Qarayman-u, ko'zim tinadi.
Va jilvangan ko'ngil ko'zgusi
Parcha-parcha bo'lib sinadi.

Shu qarashga bormi nihoya,
Bo'lurmanni maqsadga vosil?
Toparmanni bir yangi g'oya,
Bo'larmikan bir murod hosil?

Topilarmi unda bir chora,
Agar meni qurshasa junun:
Bo'lib qolsa sirim oshkora,
Atasalar nomini Majnun?



G'hirof



Mustay KARIM
(Boshqirdiston)

Zulfiya va she'riyat, Zulfiya va qo'shiq — bu so'zlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Uning she'rlari ko'p yillar muqaddam meni hayratga solgan, qalbimni rom etgan edi. O'sha kezlarda qachonlardir mening kamtarin she'rlarim uning sharofati ila o'zbek tilida jaranglashini o'ylamaganman. «Oy tutilgan tunda» nomli tragediyam qahramonlarining o'zbekcha gapirishi tam tushimga kirmagan. Bu ishlar bo'ldi-yu, shu ariga shaxsiy va ijodiy do'stligimiz ham yuzaga keldi.

Zulfiyaning she'rlarini ona tilim — boshqirdiliga o'girarkanman, ulardan olgan zavq meni lol qoldirgan.

Umuman aytganda, Zulfiya, uning ijodi, she'riyati ma'naviy turmushimizning, milliy mataniyatimizning bir qismiga aylanib ketgan. Biz shunday deb hisoblaymiz va bu bilan faxrlanamiz.

Rasul HAMZATOV
(Dog'iston)

Agar Zulfiya Armanistonda tug'ilganida — Silva, Leningradda tug'ilganida Bergolts, Bolgariyada Bagryana, Yugoslaviyada tug'ilganida ham Desanka Maksimovichdek mashhur shoira bo'la olar edi...

Shoiralik shoirlikka nisbatan kam uchraydigan hodisa. Ana shunday yarqiroq yulduzlar qatorida o'zbek shoirasi Zulfiya munosib o'rin egallaydi...

Chingiz AYTMATOV
(Qirg'iziston)

O'zbek shoirasi Zulfiyaning qutlug' qadami tufayli Sharq adabiyotiga san'atkor ayol kirib keldi, yosh va iqtidorli shoiralar butun bir pleyadasining ovozi baralla yangray boshladi.

Menimcha, Zulfiya shoira sifatida o'zbek adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biridir.

Haqiqatan ham, Zulfiya she'riyati zamonaviy o'zbek poeziyasining porloq sahifasini tashkil etadi. Men shoira poeziyasidagi dilbarlik, donolik bu ulkan madaniyatning qo'lga kiritgan ul-

kan yutug'i ekanligini ham ta'kidlamogchiman. Chunki Zulfiya faqat o'z she'rlarida gavdalangan to'la-to'kis ayol timsoligina emas, balki u mukammal shaxs hamdir. O'z zamonida shakllanib, kamolga yetgan shaxs. Poeziya Zulfiya uchun hech qachon shunchaki mashg'ulot bo'lgan emas...



Evdokiya LOS
(*Belorussiya*)

Zulfiya — oltmish yoshda... Bunga ishonging kelmaydi kishi. Uning ko'zlari, olamni tarannum etuvchi sarin she'rlari, tuyg'ulari naqadar navqiron. Belorussiyada opamiz va do'stimiz Zulfiyani bizlar nihoyatda sevamiz.



Mikola BAJAN
(*Ukraina*)

Zulfiya she'riyatining uflari uzoq-uzoq kengliklarga quloch yoygandir... Zulfiyaning yorqin, baxt nurlariga yo'g'rilgan ijodini Vatanimizdagi barcha xalqlar yaxshi biladilar. Uning she'riyatini Ukrainada ham yaxshi biladilar va sevadilar.

Edi OGNETSVET
(*Belorussiya*)

Ko'z o'ngimda Zulfiya she'rlari asosida yaratilgan O'zbekiston dostoni namoyon bo'ldi. O'qiyman, zehn solaman, yayrayman: mehnatsevar, saxovatli, tuyg'un va ma'naviy boy xalqi bilan birga uning qizi Zulfiya kamol topdi va hanuz yuksalishda. Yashnagan o'lka — O'zbekiston bog'lari aro Zulfiya qo'shiqlari yangraydi...

Musaffo qalbingiz, she'riyatingiz, odamlarga baxsh etganingiz barcha ezgulik uchun tashakkur sizga, qimmatli Zulfiya!



Irakliy ABASHIDZE
(*Gruziya*)

Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti, buyuk o'zgarishlar davrida she'riyatning, she'riy so'zning mas'uliyati nihoyatda oshib ketdi. Bu mas'uliyat shunday og'irki, uni nozik ayol yelkasi ko'tarolmaydigandek ko'rinadi. Ammo o'zbek shoirasi Zulfiya ijodida bu narsa butunlay aksinchadek tuyuladi. Bu haqda uning o'zi juda yaxshi gapirgan:

Vaqtini kishanlashga hamon men o'jiz,
Tuprog'im va umrim uzra yelar yo'l.
Ne yozsam tub-tubdan hayotga doir,
Insoniy qalbimning tebranishi ul.

Marvarid DILBOZIY

(*Ozarbayjon*)

Ajoyib tabiatli kishilarni ko'rganda nodir
inju topgan kishidek quvonaman, hayotni yana-
da qattiqroq sevanman. Siz, Zulfiya, men uchun
ana shu nodir inju va go'zal kishilardan birisiz...
Siz o'zbek xotin-qizlari chamanida go'zal bir
san'at binosini qurdingiz. Siz xalqingiz uchun
tabiatning tuhfasini, orzularisiz.

Konstantin SIMONOV

(*Rossiya*)

Katta hayot yo'lini bosib o'tib, ko'pgina yaxs-
hi kitob yozib qo'ygan kishiga bo'lgan munosaba-
tingni ikki og'iz so'z bilan ifoda etish juda mus-
hkul.

Zulfiyada ham shoir sifatida, ham inson sifatida
eng muhim fazilat — undagi yaxlitlik, intilishlar-
ning kengligi, she'riyatda, ijodda, ijtimoiy hayotda
va tinchlik uchun bo'lgan kurashlarda fidoyilik deb
bilaman. Mening ko'z o'ngimda kechgan faoliyat-

larini kuzatishning o'zigina uning hamma ishga
zavq-shavqi, qalb kuchining butun o'tini bag'ishlab
yashashligidan so'zlashga huquq beradi.

Men o'z vaqtida Zulfiyaning she'rlarini sevib,
quvonch bilan tarjima qilganman, zero, bu she'rlar
begiyos otashin muhabbat haqidagi she'rlardir.
Mening nazarimda, Zulfiya o'zining butun ayol-
lik latofati va nafisligi bilan birga mana shunday
barkamol inson, baguvvat va mustahkam irodali
shoiridir.

Nikolay TIXONOV

(*Rossiya*)

Sizning misralaringizni kuychi bulbullarimiz
shunday kuylaydiki, ularni Moskvada turib ham
eshitish mumkin. Sizning ovozingiz hamisha te-
tik. U kishiga quvonch bag'ishlaydi, uni go'zal
hissiyotlar bilan to'la dunyo sari chorlaydi. Natija-
da hayot to'kislik va aniqlik kasb etadi.

Vera INBER

(Rossiya)

«Mushoira» tasviriy san'atlarning boyligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Unda xotin-qizlarga xos kuzatuvchanlik epik kenglik bilan uyg'unlashib ketadi. Fikrlarning teranligi tuyg'ularning to'qiniligi bilan hamohang. Unda hamisha xalqlarning tinchligi va baxt-saodati uchun yangragan poeziyaning sadosini eshitib turasan kishi. «Mushoira»ni dadillik bilan adabiyotning durdonasi deb atay olamiz.



Zulfiya she'rlari



BAHOR KECHASI

*Kecha jimjit, ko'p go'zal kecha,
Qaraysan-u suging kiradi.
Yonadi gul, jilmayar g'uncha,
Yellar g'ir-g'ir esib turadi.*

*Bahor kechi tiniq va oppoq,
Borliq to'lgan gullar hidiga.
Hislar uyg'oq, tabiat uyg'oq.
Uyg'un bo'lib kishi diliga.*

*Ajab, go'yo tiniq to'lin oy
Hokim sezar osmonda o'zin.
Baxtli bilar shu dam, hoynahoy,
Sayr etgan-chun butun yer yuzin.*

*Tun musaffo, kecha beozor,
Bizdayin sof nafas oladi.
Unda yo'qdir o'timishdagi zor,
Yangi kuyga quloq soladi.*

*Oyda kulish, elektrda nur,
Yuragimda sevgi to'lgini.*

*Daydi shamol yeladi hur-hur,
Olib ketar ko'zdan uyquni.*

*Yerga bahor chaman to'shagan,
Olma hali gulin to'kmagan.
Ko'k baxmalga gullar burkangan,
Lab ochmagan, bulbul o'pmagan.*

*Ko'zim tushdi olma guliga,
Dedim taqsam eng go'zal birin —
So'ylab bersa... mening chakkamda
Dilbarligin, go'zallik sirin.*

*Shunday go'zal bahorning guli,
Undan go'zal biz o'sgan hayot,
Gul tutadi hur inson go'li,
Gulga to'lgan butun koinot.*

*Shu manzara, shu ajib chaman
Quchog'ida sevinchga boldim.
Oqshom zavqin qonib ichib men
Tog' ortiga oyni uzaldim.*

1935

MUHABBAT TONGI KULGANDA


Oqshom edi, oydin ko'prikda
Barno qiz-u yigit turardi.
Oyni kutgan oqshomgi ko'kada
Beshik-beshik bulut yurardi.

Bulutlarning yorib quchog'in
Oy ko'rsatdi olmos yuzini.
Mag'rur tashlab yerga nigohin
Tinglab goldi yigit so'zini.

«Xohi inon, xohi inonma,
Sening sevging qilmogda shaydo.
Bunday yonish begona jonda
Bir o'chmas o'i bo'libdi paydo!»

Oy suzadi, yel esar mayin,
Ikki qalbni yogar bir otash.
Yoniq dilning baxtiyor nayin
Yutmog bo'lar sukut jafokash.

Yigit sevgi tongini kutar,
Qiz ko'ziday quyuladi tun.
Lekin uzun kipriklar o'ia —
Yarqiraydi baxtga to'la kun.



«U bir o'iki, seni ko'rmasam,
Iztirobga solar jismimni.
Lol qolaman — axtarib topsam
Unutaman hatto ismimni.

Xoh inongin, inonma xohi,
Xayolimda kezasan yolg'iz.
Meni sevgin!» Yigit nigohi
Sevgi tilar — sukut qilar qiz.

Oppog pag'a bulut ustida
Hayron suzar kekasa oysuluv.
Yulduzlarni quchib ko'ksida
Anhor to'lib, jo'shib oqar suv.

Shu choqqacha ishqin qiz faqat
Dildan so'rab aygandi dilga.
Ilk musaffo, katta muhabbat
Qiz dildan kelmasdi tilga.

Hozir yurak bir nigoh bo'lib
Bogqan edi yigit ko'ziga.
Oqshom og'ushiga nur to'lib
Tong kulganday bo'ldi yuzida.



Yerda qo'shiq, ko'prikda shu'la,
Baxt-la tepdi ikki yosh yurak...
Oy so'zladi yulduzni to'plab
Sevgi tongi haqida ertak.

1936

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafscha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding mafsi.
Har uyg'ongan kurtak bergandek hayot,
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yogasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.

Yoyib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jartiklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab
Soylarga quladi tog'ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan,
Qayda shoir deya ayladi so'roq.
Barida sukunat, ma'yuslik ko'rib
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za'faronog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imga seni topolmay
Bir nuqtaga qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari
Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib.

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavlanib bir daryo oqgan?»

Baxtim bormi deya yakkash so'roqlab,
Meni she'rga o'rab suglanib boqan?

O'rik gullariga to'ymaydi nega
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'lib bogardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimi.
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
Mudom ko'rar edim o'z jamolimi.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigiti?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun gora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol!?

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tuidim-u keldim qoshingga.
U ham g'aming bilan kezdi afroda
Bogib turolmayin qabring toshiga.

Alamda tutogib daraxtga ko'chdi,
Kurakni uyg'otib so'yladi g'amnok.




Sening yoding bilan elib begaror
Gullar g'unchasini etdi choki-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda
Ovozning yangradi jo'shqin, zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozning qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushindasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekaman, hayotsan sen ham!

1945



SEN QAYDASAN, YURAGIM

Qalb bo'lganda yiroqda
Iroda ekan o'iz.
Do'stlar ham ko'p atrofdan,
Ammo men yakka-yolg'iz...
Birdan qalbin keksarib,
Qon ham gochdi yuzimdan.
Sen — sirdoshni axtarib
Xayol ketar izingdan.
Qayga ketding, «yuragim»,
Bitdi bardosh va toqat.
Subbatingdir tilagim,
Dilda hasratim qat-qat.
Ko'pdir aytajak so'zim,
O'giltaringga zormen.
Yig'laysan deb do'stlarim
Ta'na qilar. Netay men?
Sovush bermaydi menga
Yogib ketganing olov.
Netay, yetmayman senga,
O'rtaqa tashlangan g'ov.
Ishqqa maskan yuragim
Topib ber deb qistaydi.
Nima qilay, berahim,
Ruhim seni istaydi.

1945

NE BALOGA ETDING MUBTALO

O'idi oylar g'am bilan oqib,
Dil topmadi zarra tasallo.
Firoqingda qoldim turoqib,
Ne baloga etding mubtalo?
Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,
Boshim qo'ysam, kuydirar bolish,
Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko'tarar nolish.
Nahot, shuncha ma'sum, shunday pok
Sevishmogda alam bor shuncha?
Bardosh bermas iroda, idrok,
Tamoman lol aql, tushuncha.
Tog'day bor deb bilgan yuragim
Qush boshicha qolmadi, chog'i.
G'ammi yengarman degan sarim
Yana ortar alami, dog'i.
Erib ketmagandim sevgingdan
Bo'lmaslik-chun baxtingdan judo.
Birga nolish uchun sen bilan
Kuyaman-u bo'lmayman ado.

1945

KO'RGANMIDING KO'ZLARIMDA YOSH

Sog'inganda izlab bir nishon
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men etaman gul.

Keldim. Uzoq goldim men sokin
Sening aziz boshingda yolg'iz.
Osmo tinig edi va lokin
Parcha bulut etib kelib tez.

Ko'kda mening boshinda turib
Go'yo yuragimday qalqadi u.
Ko'zimdagi yoshimni ko'rib
U ham to'kdi yoshini dav-duv.

Biz yig'ladik tepangda shu kun,
Keldingmi deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar
Ko'rganmiding ko'zinda bir yosh?

1945

O'RIK GULLAGANDA

«Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...»
Gulni ko'rib ishqparast qalbim
Ming aytilgan darddan kuyiladi.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Hijron yashar ekan harorat.
O'lgudayin mushtoq bo'libman
Visolingga, yo'q chog'i, toqat.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Kirib keldim shu tanish uyga.
Biz bir chog'lar yashagan uyda
Tunab goldim xayolla birga.

Buncha issiq, buncha ham shinam
Yoshlik kechgan torgina shu joy!
Bunda yashar ajib onlardan,
Ishq-la o'igan tunlardan chiroy.

Har burchagi eliar hushim,
Nagadarlik oshno, yaqin.



Xuddi tunda kamolga yetgan
Qo'shig'ingda chagnagan chagin.


Bunda hayot — ilhom onlari,
Qalamingdan to'kilgan gavhar.
Gul bo'yini olganda shamol
Rashkka to'lib to'ngan u ko'zlar.

Sen tugatgach, chaggonlik bilan
O'qib maftun bo'lganim hayot.
"Qalay degan", bo'lib termulgan
Ko'zlaringning otashi hayot.

Hali hayot takror o'qirkan
Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim.
Yuzingdagi ulug'vor, mayin,
Bir jahonga arzir tabassum.

Bari hayot, muhabbat kabi
Hamma yerda ko'rinar izing.
Parrandalar nag'ma ko'yida
Jaranglaydi tovushing, so'zing.

Meni o'rab oldi hayajon,
Yana ortdi sevgining kuchi.



Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,
Otinlandi terakning uchi.

Sen kuylagan o'rik shu kecha
Burkandi oq — oppoq chechakka.
Men qadrdon xoitira bilan
Jo'nab ketdim uyimga yakka.

1947



O'G'IRLAMANG QALAMIM BIR KUN

«O'g'irlyaman qalaming bir kun!»
Hazilingiz ko'chirdi jonim.
Naq yarogsiz qolarday bugun
Sirqiradi tole, imonim.

O'g'irlamang qalamim bir kun,
Meni etmang sog'ov va cho'loq.
Taginchog'im, anjomim to'kin,
Bari qo'lga, ko'zga yaqinroq.

Yetar, olmang qalamim bir kun!

Men Hofizday ulashmayman yurt!
Iste idodim, qalbim sizlarga.
Yaxshi nomim, baxt-sevinchim but,
Barchasini beray qizlarga.

Yuragimdan uzayin parcha,
Va keltirib sham deb tutayin.
Xoxish, xohish, izmingiz barcha,
Barchasini ko'zga surtayin —

O'g'irlamang qalamim bir kun!



Gar paxtadan to'lmasa reja,
Sochlaringizni berayin qo'shib,
Sizga orom bermasa kecha,
Oling mendan! Men bedor jo'shib

Baxtingizni olay qalanga,
Ochib beray sizga qalbingiz.
Shuhratini yoyay olanga
Mehnatigiz, sevgi, kashfingiz.

O'g'irlamang qalamim bir kun!

Qalam-la men to'qiyman qo'shiq,
U — insonga, elga xizmatim.
Burchin bekam ado etgan yo'q,
Qarzim uzar ikki farzandim.

Farzand mehri va qalamimni,
Xudo haqqi, qo'ying o'zinga.
Usiz qolsam, o'ldi deb mani
Sekin parda torting yuzimga...

O'g'irlamang qalamim bir kun!...

1968



BOG'LAR QIYG'OS GULDA

Bog'lar qiYG'os gulda — yaxlit bir chaman,
Har daraxt anvoyi bir tarovada.
Bir kaft bog' mehnat-u hosilga vatan,
O'zga ko'rk, o'zga rang har bir daraxtda.

Har navda bir gulda, bir gulda bir ro'y,
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya,
Har birin hosili o'zgasiga ko'rk,
Biri-biri uchun qudrat, himoya.

Vatanim ko'zimda: qay burchi aziz,
Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?
Yalpi to'lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go'yo.

Bir qardosh tinchisiz o'zga beorom,
Birining nonisiz o'zga emas to'q..
Bu — qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orga tog'siz bir tirik jon yo'q.

Tayanch bo'lmasaydi, odamzod albat,
O'zi kashf etardi kashf etganday baxt.

1972

BAG'RINGDAN QO'YMA

Mayli, zaifligim, ko'z yoshim suyma,
Yalqovligim, nugsim ekan bedavo.
Men tortgan dardlarning zahrini tuyma,
Tuyganda injitib berdingmi sazo?

Baxtdan, baxtsizlikdan qolsam dovdirab
Senga qo'shiq aytib, senga deyman dod.
Yonsam, suv sepasan, so'nsam, yondirib,
Boshingga ko'tarding onadan ziyod.

Yillar qancha olib ketse — shuncha yaqinman,
Borgan sari ortar toli nasibam.
Qayga bormay qaytgum, senga intiqman,
Mening ohanrabom, mening nashidam.

Qonimdagi yonish, bebosh hislarim,
Qoniqmas ta'binni ziqlikka yo'yma!
Qaynoq suygum,
Kuyim,
Sovuq jasadim,
Ona Vatan, o'tinch, bag'ringdan qo'yma.

Vatan bo'lmasaydi odamzod albat
O'zi kashf etardi kashf etganday baxt.

1972

XOTIRAM SINIQLARI

*Hurriyat, keldingmi, naxotki, kelding?!
Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.
Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek
Sening nasiminga qalbinni tuidim.*

*Mana, qalb — baxt-u dard to'la dengizim,
Mavilari shuhratim, hijron, o'kinchim.
Qo'rg'uv kalxatlari tegib sindirgan
Yodim siniqlari ostida — cho'kindi.*

*Yodim siniqlari, qalg, ovoz beray,
Qalqidi, yuragim, chida, ber bardosh.
Qaragin titroqda — hammasi jonli,
Qara, hammasining yuzi qontalosh...*

*Bu onam — tangrining baxtli onida
Ayri ixlos bilan yaratgani chin.
Qarog'ida mehr shamlari yoniq
Gullagan o'rikday orasta otin.*

*Kun toyib, shu'lalar ko'chgach ufqga
Sayroqi gushlarning tinganda bazmi,
Onam dilimizni chorlab qo'shiqqa
Nim-nim sochar edi mumtozlar nazmin.*

*So'fi Olloyormi, devona Mashrab,
Bayozlarin o'pib qo'lga olardik.
Yumushmi, o'yinni — barini tashlab,
Sehrli olamga kirib borardik.*

*Rang-u ohanglarni jonim kuyganda,
Shu'laga to'lardi butun koinot.
O'zinni sehriga asir tuyganda,
Yurakda yozardi qo'shiq o'ti qanot.*

*Yanganga esh bo'lib tikdim palagim
Qog'ozdan sir tutgan satrinni tepchib.
Gullardi palakda shirin tilagim —
Ko'zimdan yoshlikning nurlarin ichib.*

*Hovlimiz z'ynati jambil, rayhonday,
Otam ta'biricha, edim boychechak.
Hali biz sezmagan qora qish aro,
Nahot, jonlamoqda ishq otlig' chechak...*

*Va hademay sezdik bu gahramonni,
Tig'lay tillarida yalay boshladi.
Qadam yetganda har xonadonning
Quvonchi bujmayib, so'liy boshladi...*

... Aka, ko'zingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,
Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorni ki yanglig' bardosh bor edi.

Sizni-da qora tun oldilarmikin,
Qo'lingizga kishan soldilarmikin,
Yukunish, yalinchmas — g'ururni ko'rib
Vaxshiy g'azablarda yondilarmikin?!

Aka, jonim akam — jondoshim akam,
Olmish yil izimga qaytib yig'layin,
Bo'g'zimda tosh bo'lgan yo'qlolarimni
«Oh»larim eritar — aytib yig'layin.

Singlini «mehrdan bino» deyilar,
Ko'z yoshga yetdimi mehrimning kuchi!
Gunohsiz, jonining qotillariga
O'q qilib otdimi nafratim, o'chim?

...Buncha chidam qaydan — po'lat, olovdan,
Metindan yaralgan jonmida otam?..
Otash og'ushidan topib bizga non
G'amga ham chidamli bo'larkan odam.

Onam qo'llarida mushdek tugunchak
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamoni «siz»lab.

Keksa ko'zlarida mo'ldir va mo'ldir
Qotgan ko'z yoshlarga bogardim hayron.
Bu sokin jussani kemirar ne sir,
Ne bois muttasil dillari vayron?..

Kuni bo'yi kezib, bukchayib, tolib,
Keksa bag'in yerga berib yotardi.
Biz nochor bir-birga ezilib boqib
Sukut dengiziga og'ir botardik.

Onam, «suv boshidan loyga» derdingiz,
Bilmasdik bu gapda haqiqat zuhur.
Muhtasham binoda sirli, yashirin
Asl yig'ilarga qazilardi go'r.

Qolganda azoblar iskanjasida,
Ota, bir ko'rmadik ko'zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasida,
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.

Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg'in doyasi xudosizlar-ku.
...Sabr, qanoatdan yaratgan elim,
So'qir ham o'ziga so'qmoq izlar-ku!

Norg'ul o'g'illaring qirildi qushday
Sibirning nur tushmas o'rmonlarida.
Sen esa yasharding misoli tushda
Turtinib g'ofillik tumanlarida.

Menmi? Men shu qadar yosh edim hali,
Yoshlik — g'am begona biri-biriga.
Qutulmoqda anduh botqoqlaridan
Osildim muhabbat shodliklariga.

Menmi? Men ishq oltig' bir jahon aro
She'r tinglab, she'r tizib she'rlarda goldim...
Behishiy jaranglar — jonimga oro,
O'zimning baxtimda o'zim yo'goldim.

Baxt qasringa kirib meni topdi dard,
Urush, yozda yoqqan qor kabi o'lim.
O'ttizga yetmayoq sochim qor yalab,
Ko'z yoshim soyiga to'kildi gulim.

Onam, donolikda yagona onam,
Isyon ko'rarishdan bermabsiz saboq.
Ustimga ketma-ket tog' qulagan dam
Qoldim yashin urgan polapon siyoq.

Bo'ldi, bas! Jangdan so'ng xorg'in sarkarda
Tirik askarlari tizganday qator
Men tirik hislarim bir joyga yig'dim
Va kuchli yashashga ayladim qaror.

Yurtni bo'ron bo'lib kezdim bosh-oyoq,
Qabristonlar aro quyunday yurdim,
Eng kichik giyoh ham nazdinda, uyg'oq,
Faqat el-elatni sukutda ko'rdim.

Tushlarimda topib akam jasadin,
Otamning yoniga qaziddim qabr.
O'zim yonganida ruhlar yondi deb
Xokiga suv sepi, tiladim sabr.

Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzooq,
Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.
Yoziqni devorga urdim-u, biroq
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.

Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa,
Lekin so'qirtilik undan-da dahshat.
Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga
Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.

«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,
Betalar, benolish yashabmiz ko'p yil.
Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimim
Labi kulib, nechun rang-ro'yi zaxil?!

Toji yo'q podshoday sezdimi o'zin,
Shu'la yoyilmadi bukik dilida?
Qo'lida zarra yo'q ixtiyor, izn,
Bildimi yitardi g'urur elida?!

«Vatanparvar», — debmiz o'z-o'zimizni,
Dengizlar quribdi, chiribdi baliq,
«Insonsan, boshingni ko'tar», — demabdi,
Ko'ngling qolganmidi bizlardan, Xoliq?

O'zing berganding-ku poklik, halollik,
Iymon-u ishonchlar — butun, beillat,
Qilolmas edi-ku shayton dallollik,
Ilm-u hikmatlarga yor edi millat.

... Ey gumbazi gardun, goldimmi g'ofil,
Ishonch, e'tiqodlar chiqadi puchlarga?!
Suyanib najotlar kutgandik, nahot,
Bizga cho'qazigan qora kuchlarga?!

Kim bilsin, savob deb urinishlar ham
Zamona soziga o'yinni bari.
Deydilar: Yaratgan eng ulug' Hakam,
Hech qachon adashmas tarozulari.

Qay biri vazminroq: savobmi, gunoh?
Yashadim-ku riyo, haromdan nari.
Kuyganman. Bosh-oyoq kuyuk jismimning
Nimasin yogardi do'zax o'tlari?..

By dunyoda ko'rgan azob, ko'z yoshlar
Savob posangisin xiyol bosarmi?
Gumrohlik pallasin to'ldirsa toshlar,
Eng baland doriga meni osarmi?

Yoshim ketib-ketib, torday tarangman,
Kapalak sharpasi tegsa, uzilur.
Chiday-chiday yupqa tortgan parangman,
Cho'yan bo'lsa ham dil — qulfi buzilur.

Lekin yashayapman, otam va onam
Chayir arqoqlardan to'qishgan, chog'i.
Aytilmagan alam, yozilmagan she'r,
Olimmagan qasos — yurak titrog'im.

Boshim — portlovchi dud to'ldirilgan xum,
Portlashin kutardim soniya sari.
Sabrlar to'kildi naq kafidagi qum —
Yuzim ruhlarida qonli izlari...

Bilmayman, savobmi yo koni gunoh,
Zimhor shakkokilikka yo ymang tilagim.
Jasadin daryoga tashlang, ruhim pok,
Obi rahmatlarda sovisin tanim...

... Yallig'lanib yotar keksa xotiram
Ichida shu dardlar, tig'li siniglar...
... Holbuki, nur ichra dala-yu daram,
Holbuki, bog'imda bulbul chax-chaxlar...

Hurriyat, keldingmi, nahotki, kelding?!
Kelar yo'llaringda pinhona toldim.
Mening ota-onam, jon Vatanimda,
Elim taqdirida abadiy golding...

Kelding-ey, Istiqbol, istiqbol bo'lib,
Qalbimga nasiming bilan yo'l solding.
Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,
Men og'ir bulutdek bir yog'ib oldim...
Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,
Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim ochar.
Vaqt yetsa, shu xalqqa qolar dafjarim,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...

Ruhim u yoqlarda qush bo'lib uchar...

1995



KO'NGIL TOG' O'LDI, TOG' O'LDI

*Jahon otin Uvaysiy o'z tavalludlari-
ning 200 yilligi tantanasini ko'rganla-
rida shunday barhayotlik nazmini ayt-
gan bo'lar edilar.*

Ayo do'stlar, bu ne davron, ko'ngil tog' o'ldi,

Asrlik zulm uyi vayron, ko'ngil tog' o'ldi,

Ulus obod, hama shodon, ko'ngil tog' o'ldi, tog' o'ldi,

Ki, hayrat ham o'zi hayron, ko'ngil tog' o'ldi,

Bu yanglig' baxt-saodatdan ko'ngil tog' o'ldi,

Bilurmen, hasrat-u g'am tah-batah bizning

Nechunkim el uchun zindon edi dunyo azallarda,

Haqiqat ham, adolat ham ochardi yuz masallarda,

Jafotaxt yo'q, qarobaxt yo'q, hamma oftob

Bu tenglik, bu kamolotdan ko'ngil tog' o'ldi,

*nazarlarda,
tog' o'ldi.*

Sinibdur gumbazi zulmat, hurriyat bargaror

oxir,

Tasanno, biz ayol ahliga sha'n-iqbol shior oxir,

Saodat shevasi solmish ko'ngiliga shavq-sharor

oxir,

Yalovdir she'r, kel ey, xushnud dilingni et nisor

oxir,

Bu ehsondan, bu davlatdan ko'ngil tog' o'ldi,

tog' o'ldi,

Ikki yuz yil suronidan omon chiqqan

sabotdirman,

Vatan bir baxt, menam bir baxt, ikki nurli

qanotdirman,

Ajab tole, jahon ichra tag'in bul kun

hayotdirman,

Kalomim birla nomim parpiroq, mangu

bayotdirman,

Bu e'zoz-u bu himmatdan ko'ngil tog' o'ldi,

tog' o'ldi.

Dilimni sham qilib erdim, bu davron ming

charog' o'ldi,

O'g'il-qizdan judo erdim, menga avlod qarog' o'ldi,

Ki, ro'zg'orim xarob erdi, elim boshga panoh o'ldi,
Ne so'z aytdim, qaro o'imishni fosh etgan

Zamon bergan bu qudratdan ko'ngil tog' o'ldi,
yarog' o'ldi,
tog' o'ldi.

By yonda Nodirabegim, bu yon Mahzuna luf etsa,
Nazngo y'lik tuzar bo'lsak, ko'ngil torin quvonch
chertsa,
Umiddni she'r etib sochsak, tuman dilga borib

Necha Gulchehralar ozod, ko'yingga jo'r bo'lib
yetsa,
By xil mumtoz shuhratdin ko'ngil tog' o'ldi,
ketsa,
tog' o'ldi!

Uvaysiy, boq, bugun yurtida nazm — tole,
zako — qonun,
Muhabbatga ado qonun, sadoqatga vajo qonun,
Ki, bulbul chax-chaxi yanglig' qo'shiqlarga
sado qonun,
Tashakkur, qadr-u ardoqqa, senga umri bago qonun,
Ajab kamyob bu qismatdin ko'ngil tog' o'ldi,
tog' o'ldi.
1983

* * *

G'uncha yanglig' burkanib ko'ngling ochilmaydir nega?
Ochilur fasli kelib, bo'y'ing sochilmaydir nega?

Kulgular, xandonlar, sho'x-sho'x qo'shiqlar qaydadir,
Muttasil bulbullaringga kulgu kelmaydir nega!

Lolalar, bog'lar, chamanlar asti yetmasmi senga,
Bu sening oy yuzlaring shodlikni bilmaydir nega?

O't kabi yongan bu ko'zlardan nechun yoshlar oqur,
Ham ko'ngillar norizolikdan cheklamaydir nega?



JANUB KECHASIDA

*Sen bo'lmasang shu och to'lg'inar
Ko'rinnasdi sira ko'zinga.*

*Sen bo'lmasang o'zinning ko'nglim
Kirmas edi aygan so'zinga.*

*Sen bo'lmasang yetmasdi xursand
Suv ustida suzib yurgan oy.*

*Hamisha sho'x, doimo baland,
Yulduzdagi jon yogar chiroy.*

*Qarashlaring tinchini olib,
Cherib ketdi qalbim torini.*

*Shundan keyin sezdin yurakda
Shuncha kuchli o'tning borini.*

*Aytib ber-chi, shuncha sevganlar
Bo'lganimkan mencha baxtiyor?*

*Aytib ber-chi, qaysi qiz burun
Sevib bo'lgan umid bilan yor?*



*Hamid
Olimjon
she'rari*



DARYO TINIQ, OSMON BEG'UBOR

Baxtim borki, har narsa go'zal
Ko'rinadi mening ko'zinga.
Vodiyarga quyosh to'kkan hal,
Shuning uchun sarxat so'zinga.

Aybim yo'qdir, gul vodiylarda,
Badbirlarni xushlay olmasam.
Ko'kka qarab turib saharda,
Shod o'iarman, deb ichsam qasam.

Oppog gordir tog'larning toshi,
Daryo tinig, osmon beg'ubor.
Shu yerdadir o'lkaning boshi,
Suv bo'yida mening uyim bor...

Bu o'lkada qalblarning toza,
Va poklari kelib uchrashar.
Odam topgan baxtin ovoza,
Qilib gullar, bulbullar yashar.

O'LLA

Men dunyoga kelgan kundanog
Vatanim deb seni, o'pgandim,
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal gondim.

Qulog'imga noming kirganda
Qunlik kabi tashna boqurman,
Sening jannat vodiylaringdan
Nahlarday to'lib oqurman.

Bisirlarkim, yo'ldoshim bo'lmas
Ko'zda yoshi bilan kulgular,
Tillari bor, o'zlari hayot,
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.

Har aytinganing buyuk jangnoma,
Qayga desang qayimay keturman.
Ko'zlarimni yummaman aslo —
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

YODIMIZDAGI YOG'DULAR

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar joningga payvast,
Men sevgining bo'yi bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo'qoldim.

Quchoq-quchoq gullar terganim,
Va qaltirib senga berganim,
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.
Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

HAYOLIMDA BO'LDING UZUN KUN

Hayolimda bo'lding uzun kun,
Seni izlab qirg'oqqa bordim.
Och to'lg'inlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.

Ishon, bunda seni doimo
Esga solar chiroyli tunlar,
Sho'x yulduzlar, salqin sahralar,
Esga solar baxtiyor kunlar.

Toleimning oshinosi sen,
Sen sevgimning ko'kargan bog'i.
Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafó tog'i.

Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyuladi.
Shunda qancha-qancha gaplarni
Esga solib oy ham to'ladi.

Kecha jim-jit, yolg'iz to'lg'inlar
Pishqiradi bilmay tinimini.
Hiylagar oy, sehrigar dilbar,
Solib qo'yding yodimga kimni?..

O'RIK GULLAGANDA

*Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...*

*Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.*

*Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'radi,
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aladab ketadi.*

*Mayli deymen va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman.
Har bahorga chiqqanda yaklash,
Baxtim bormi, deya so'rayman.*

*Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Ergan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...*

*Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz.
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:*

*«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siganicha ol.
Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.*

*Umrida hech gul ko'rmay, yig'lab
O'iganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»*

*Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...*



SOG'INGANDA

*Kabutardek yurak urinar,
Necha kundir sensiz yashadi.
Mana ko'rkim, endi har nafas
Vujudimda o't tutashadi.*

*Necha kundir yo'qoldi tinchim
Va uyguga etdim alvido.
Necha kunlar, necha soatlar
Xayolingga ayladim fido.*

*O'iar ekan tunlar va kunlar,
Ayrilqda axtarib visol,
Va tonglarda yakka ham o'ychan
Kexar ekan parishon va lol.*

*Bortig'imni ismingni aytib,
Chulg'ab olar bir go'zal xayol.
O'sha jilva va o'sha otash,
O'sha ko'z-ki, suzgun, xayolkash
O'sha imo, o'sha ishora
Eta boshlar yurakni pora.*

O'ZBEKISTON

*Vodiyarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda...
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirida g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga qulog tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim, aslo.*

*O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston,
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorti tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.*


Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib xuddi yoqut piyola.
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan gochadi uyqu.
Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan-kunga o'sadi paxta,
Barg chiqadi har bir daraxtda.
Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to'lar Tekstil.
Hammasi bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog'i pishqirgan selda
Arg'umoklar qo'shig'i bordir,
Bu shundayin ajib diyordir.
Dalasida o'smas tikonlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar.
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o'lsa qurimas zoti.



Changov qolib yo'lovchi o'lmas,
Har burchakda boshkesar bo'lmas.
Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go'daklarni yutmas och o'lim.
Odamlarga baxt-tole yordir,
Bu shundayin ajib diyordir.

* * *

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi.
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Bir o'lkaki husnga boydir,
Uning eng zo'r ko'zgusi oydir.
Bir parcha o'ti bo'lib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi.
Kuychilari o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla.
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.
Bu shundayin ajib diyordir...






*Shunday o'lkada doim bor bo'lsin,
Shunday o'lkada elga yor bo'lsin.
Omon bo'lsin og'aynilari,
Omon bo'lsin do'stlarning bari.
Doim bo'lsin o'lkasi omon,
Shunday bo'lsin bu butun jahon.*

*Shafqolizor bog'larni ko'rdim,
Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim.
Mehr qo'yib o'pgan sari oq,
Oppoq bo'ldi bu aziz tuproq.
Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda...*



MUNDARIJA

Zulfiya (1915–1996)	4
ESSELAR	7
E'TIROF	71
ZULFIYA SHE'RLARI	79
Bahor kechasi	80
Muhabbat tongi kulganda	82
Bahor keldi seni so'roqlab	84
Sen qaydasan, yuragim	88
Ne baloga etding mubtalo	89
Ko'rganimding ko'zlarimda yosh	90
O'rik gullaganda	91
O'g'irlamang qalamim bir kun	94
Bog'lar qiyg'os gulda	96
Bag'ringdan qo'yma	97
Xotiram chiniqlari	98
Ko'ngil tog' o'ldi	108
G'azal	111
Janub kechasida	112
HAMID OLIMJON SHE'RLARI	112
Daryo tiniq, osmon beg'ubor	114
O'lkada	115
Yodimizdagi yog'dular	116
Hayolimda bo'lding uzun kun	117
O'rik gullaganda	118
Sog'inganda	120
O'zbekiston	121





Qayd uchun

1. ...
 2. ...
 3. ...
 4. ...
 5. ...
 6. ...
 7. ...
 8. ...
 9. ...
 10. ...
 11. ...
 12. ...
 13. ...
 14. ...
 15. ...
 16. ...
 17. ...
 18. ...
 19. ...
 20. ...
 21. ...
 22. ...
 23. ...
 24. ...
 25. ...
 26. ...
 27. ...
 28. ...
 29. ...
 30. ...
 31. ...
 32. ...
 33. ...
 34. ...
 35. ...
 36. ...
 37. ...
 38. ...
 39. ...
 40. ...
 41. ...
 42. ...
 43. ...
 44. ...
 45. ...
 46. ...
 47. ...
 48. ...
 49. ...
 50. ...
 51. ...
 52. ...
 53. ...
 54. ...
 55. ...
 56. ...
 57. ...
 58. ...
 59. ...
 60. ...
 61. ...
 62. ...
 63. ...
 64. ...
 65. ...
 66. ...
 67. ...
 68. ...
 69. ...
 70. ...
 71. ...
 72. ...
 73. ...
 74. ...
 75. ...
 76. ...
 77. ...
 78. ...
 79. ...
 80. ...
 81. ...
 82. ...
 83. ...
 84. ...
 85. ...
 86. ...
 87. ...
 88. ...
 89. ...
 90. ...
 91. ...
 92. ...
 93. ...
 94. ...
 95. ...
 96. ...
 97. ...
 98. ...
 99. ...
 100. ...



Qayd uchun

1. ...
 2. ...
 3. ...
 4. ...
 5. ...
 6. ...
 7. ...
 8. ...
 9. ...
 10. ...
 11. ...
 12. ...
 13. ...
 14. ...
 15. ...
 16. ...
 17. ...
 18. ...
 19. ...
 20. ...
 21. ...
 22. ...
 23. ...
 24. ...
 25. ...
 26. ...
 27. ...
 28. ...
 29. ...
 30. ...
 31. ...
 32. ...
 33. ...
 34. ...
 35. ...
 36. ...
 37. ...
 38. ...
 39. ...
 40. ...
 41. ...
 42. ...
 43. ...
 44. ...
 45. ...
 46. ...
 47. ...
 48. ...
 49. ...
 50. ...
 51. ...
 52. ...
 53. ...
 54. ...
 55. ...
 56. ...
 57. ...
 58. ...
 59. ...
 60. ...
 61. ...
 62. ...
 63. ...
 64. ...
 65. ...
 66. ...
 67. ...
 68. ...
 69. ...
 70. ...
 71. ...
 72. ...
 73. ...
 74. ...
 75. ...
 76. ...
 77. ...
 78. ...
 79. ...
 80. ...
 81. ...
 82. ...
 83. ...
 84. ...
 85. ...
 86. ...
 87. ...
 88. ...
 89. ...
 90. ...
 91. ...
 92. ...
 93. ...
 94. ...
 95. ...
 96. ...
 97. ...
 98. ...
 99. ...
 100. ...

Nurali QOBUL

**SADOQAT SAROYINING MANGU
MALIKASI ZULFIYAXONIM**

yoʻxud

**HAMID OLIMJONNING
SOʻNGSIZ ARMONI**

Esse va sheʼrlar

Muharrir:

Abdulkamol Abdullalilov

Texnik muharrir:

Yunusali Oʻrinov

Sahifalovchi:

Inoyat Zohidova

Musahhiha:

Nozima Muxamedova

Nash. lits. № AI 245, 02.10.2013.

Terishga 28.11.2018-yilda berildi. Boshiga 22.02.2020-yilda

ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Offset bosma. Virec Times UZ

garriturasi. Sharhi b.t. 7.44 Nashr b.t. 8.6. Adadi: 30000.

Buyurtma №156.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. E-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MChJ bosmaxonasidabosildi.

Toshkent shahri, Shiroq koʻchasi, 100-uy.

Telefon: (371) 228-07-96, faks: (371) 228-07-95